


MATEMATIKA TARIXI

Radjabov B.SH., Usmonov B.Z.,
Erqashhev I.A.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Radjabov B.SH., Usmonov B.Z., Ergashev I.A.

MATEMATIKA TARIXI
(O'quv qo'llanma)

-14062/24-

CHIRCHIQ - 2023
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLY TA'LIM,
INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI
«City of book» FAN VA INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UDK 510;37.0
KBK 22.1
R-15

Radjabov B.SH, Usmonov B.Z., Ergashev I.A./ Matematika tarixi / O'quv qo'llanna. - Chirchiq: «City of book», 2023. – 112 bet.

O'quv qo'llanna "Matematika o'qitish metodikasi va geometriya" kafedrasida tayyorlangan. Ushbu o'quv qo'llanna Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining 5111100 – "Matematika o'qitish metodikasi" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchi bakalavriatning 3 va 4 bosqich talabalariga, universitetlarning matematika yo'naliishiда o'qiyotgan talabalar va magistrantlari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanna beshta bobdan iborat bo'llib, birinchi bobda, matematikaning paydo bo'llishi, antik davr asilardagi O'rta Osiyo xalqlari matematikasi, ikkinchi bobda IX - XI matematikkasi (qadimgi Yunon xalqlari matematikasi), Xindiston xalqlari Yevropa xalqlari matematikasi, ya'ni klassik matematikaning shakllanishi, to'rtinchchi va beshinchchi boblarda zamonaqviy matematika yo'naliishlarining shakllanishi va rivoji, O'zbekistonda matematika va matematik ta'lim rivojanishi tarixiga oid ma'lumotlar berilgan. Har bir bobga tegishli mavzular bo'yicha nazorat savollari kiritilgan.

Taqribchilar:

1. Xasanov A.-O'z.FA V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti bosh ilmiy xodimi, f.-m.f.d., professor.
2. Maximova D.M. – Chirchiq dvlat pedagogika universiteti "Matematika o'qitish metodikasi va geometriya" kafedrasi mudiri, p.f.d. dotsent.

O'quv qo'llanna O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagisi 314 - sonli buyrug'iga bilan tavsiya etilgan.
ISBN 978-9910-9950-2-6

© Radjabov B.SH va b., 2023
©«City of book», 2023

KIRISH	MUNDARIJA
I – BOB. "MATEMATIKA TARIXI" FANINING SHAKLLANISHI	4
V A AHAMIYATI	8
1.1. "Matematika tarixi" fanining shakllanishi	8
1.2. Matematika tarixi fanining maqsad va vazifalari	11
1.3. Matematikaning paydo bo'llishi va rivojanishida amaliyotning ahaniyati	12
1.4. Matematika tarixining asosiy davrlari	15
II – BOB. ANTIK DA VR MATEMATIKASI	18
2.1. Qadimgi Yunonistonda dastlabki matematik bilimlarning paydo bo'llishi va shakllanishi	18
2.2. Qadimgi Yunonlarda uch asosiy masalaning shakllanishi	21
2.3. Qadimgi Yunonistonda matematikaning shakllanishining falsafiy tezslari Demokrit ta'limoti	28
III – BOB. IX - XI ASRLARDA MARKAZIY VA O'RTA OSIYO XALQLARI MATEMATIKASI	31
3.1.Qadimgi sharq xalqlari matematikasi (Xitoy	31
3.2.Qadimga Hindiston xalqlari matematikasi	38
3.3.O'rta Osiyo xalqlarida matematikaning rivojanishi	44
3.4.Al-Xorazmiy matematika maktabining shakllanishi	48
3.5.Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatida matematikaning rivoji	64
IV – BOB. YEVROPA XALQLARI MATEMATIKASI TARIXI	74
4.1.XIII-XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlariida matematikaning rivojanish	74
4.2.Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlariida matematik fanlarning rivojanishi	75
4.3.Differensial va integral hisobning yaratilishi	78
4.4.Rossiya matematika maktabi tarixidan	86
V – BOB. XX ASR MATEMATIKASI TARIXI	91
5.1.Matematika tarixida yo'naliishlarining shakllanishi	91
5.2.XX asrda O'zbekistonda matematikaning rivojanishi	99
"Matematika tarixi" fandan seminar mavzulari	107
Foydalaniigan adabiyotlar ro'yxati	109

KIRISH.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida: “Bugungi zamон barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko’tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarни ilm fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir”, deb ta’kidlagan edi. Bugun yurtimizda chuqur tarixiy asosga ega va zamonaviy taraqqiyot uchun juda muhim fanlardan bini bo’lgan matematikaga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg’ony, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug’bek singari ulug’ ajododdarimiz tamal toshini qo’yan bu fan so’nggi yillarda o’zining yangi rivojanish bosqichiga kirdi, deb bemalol ayta olamiz. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-fevraldagи “Fanlar akademiyasi faoliyati, ihmiy tadqiqot ishlarini tashkil yetish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga muvofiq O’zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Matematika instituti Fanlar akademiyasi tarkibida qayta tashkil etildi.

Ayni payida Prezidentimizning 2019-yil 9-iyuldagи “Matematika ta’limi va fanlarini yana-da rivojlanтирishni davlat tomonidan qo’llab quvvatlash, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda 2020-yil 7-maydagи “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ihmiy tadqiqotlarni rivojantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari qabul qilindi.

Ushbu qarorlar orqali matematika fani va ta’limini rivojlanтирish, xalqaro standartarga moslashtirish uchun mayjud muammolarni bartaraf etish tizimi yaratib berildi. Masalan, talabalarning matematika fani bo’yicha xalqaro olimpiadalardagi ishtiroi ki qo’llab-quvvatlanmoqda.

Matematika ta’lim yo’nalishlariда ta’lim olayotgan talabalar va tudioqotchilar uchun akademik T.A.Sarimsoqov nomidagi stipendiya ta’sis etildi. O’zbekiston matematika jamiyatining Xalqaro aloqalarini kengaytirish va Xalqaro matematiklar jamiyatiga to’laqonli a’zo bo’lishini ta’minlash choralarini ko’rilmoxda. Shiddat bilan o’zgarayotgan bugungi zamonda kelajakni matematik asoslab qurish zarur. Bu zamonaviy muammolarni yechishda axborot texnologiyalari, dasturlash, matematik modellassatirish va kimyo, - biologiya kabi sohalarni rivojlanтирish juda muhim. Bu sohalarning asosi esa, albatta, matematika. Matematika ta’limi yo’nalishlariда uning tarixini bilish o’ta muhimdir. Matematika tarixi bo’yicha horzida ko’plab ilmiy maqlolar, monografiyalar, xristomatiyalar yozilgan. Tavsiya etilayotgan o’quv qo’llanna Olyi ta’limning matematika va matematika o’qitish metodikasi yo’nalishlariда ta’lim olayotgan talabalgarda mo’ljallangan bo’lib, u beshta bobdan iborat. Birinchi bobda “Matematika tarixi” fanining shakllanishi va ahaniyati masalalari bayon etilgan. Ikkinchi bobda “Antik davr matematikasi” ga oid ma’lumotlar, jumladan Yunonistonda dastlabki matematik tushinchalar va masalalarning shakllanishi tarixiga bag’ishlangan. Qo’llamanan uchinchli bobi “IX -XI asrlarda markaziy va O’rta Osiyo xalqlari matematikasi” deb nomlangan bo’lib, unda qadimgi sharq mamlakatlari xalqlari (Jumladan, Xitoy, Hindiston va O’rta Osiyo xalqlari) matematikasi, xususan Al Xorazmiy matematika maktabi, Ma’mun akademiyasidagi matematik tadqiqotlar xaqida ma’lumotlar berilgan. To’rinchi bobda zamonaviy matematikaning asosi bo’lgan XIII-XVIII asrlarda Yevropa mamlakkatlarda matematikaning rivojlanish tarixi bayon qilingan. Jumladan ushbu bobda differential va integral hisob asoslarining shakllanish tarixi keltirilgan. O’quv qo’llamaning so’nggi, beshinchli bobda IX-asrdan fan tarixi «Musulmon renessans» deb nomlangan yangi yuksalish davriga kirdi. «Bayt ul-hikmat»da Yunoniston, Hindiston, Xorazm va Xitoya jamg’arilgan bilimlar sintez qilinib, matematika izchil rivojlanтига boshlandi. Xorazmiy tarqoq bilimlarni tartibga keltirib, algebraga asos soladi. Uning o’nli sanq sisternasi bayon qilingan

asari tufayli bu qulay hisoblash vositasi dunyoga yoyildi. Asarlari o'qimishli bo'lishi uchun Xorazmiy anik va lo'nda bayon uslubini qo'llagan. Shu tufayli uning asarlari keng tarqalgan. Xorazmiy uslubi yevropalik tarjimonlar tomonidan mualif nomi bilan algoritim deb atalgan. XX asr matematikasi taraqqiyoti, O'zbekistonda matematika ta'limi va fanining shakllanishi va rivojanish tarixi bayon etilgan, bunda vatandoshlarimiz buyuk matematik olimlar, ularning hayot yo'llari va matematikaga qo'shgan ilmiy hissalarini haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

MATEMATIKA (yun. mathematice, mathema — bilim, fan) — aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan. Dastlabki obyekti samoq bo'lgani uchun ko'pincha unga «hisob-kitob haqidagi fan» deb qaralgan (bugungi Matematikada hisoblashlar, hatto formulalar ustidagi amallar juda kichik o'rinn egallaydi). Matematika eng qadimiy fan sohasi bo'lib, uzoq rivojanish tarixini bosib o'tigan va buning barobarida «Matematika nima?» degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan. Yunonistonda Matematika deganda geometriya tushunilgan. 9—13-asrlarda Matematika tushunchasini algebra va trigonometriya asosida kengaytirgan.

XVII—XVIII asrlarda matematikada analitik geometriya, differential va integral hisob asosiy o'rinni egallaganidan so'ng, to 20-asning boshlariqacha u «micodev munosabatlар va fazoviy shakllar haqidagi fan» mazmunida ta'riflangan. 19-asning oxiri va 20-asning boshlarida turli geometriyalar (Lobachevskiy geometriyasi,

Proyektiv geometriya, Riman geometriyasi kabi), algebralardan (Bul algebrasi, kvaternionlar algebrasi, Keli algebrasi kabi), cheksiz o'chovli fazolar kabi mazmunan juda xilma-xil, ko'pincha sun'iy tabiatli obyektlar o'rganila boshlandi. Bu davrda matematik mantiq va to'plamlar nazariyasi asosida o'ziga xos mushohada uslubi hamda tili shakllanishi natijasida matematikning eng asosiy xususiyati — qat'iy mantiqiy mushohada, degan g'oya vujudga keldi (J. Peano, G. Frege, B. Rassel, D. Gilbert). 20-a. o'rtilarida Burbaki taxallusi ostida Matematika

ta'linni qayta ko'rib chiqqan bir guruh fransuz matematiklari bu g'oyani rivojlanritirib, «Matematika — matematik strukturalar haqidagi fan» degan ta'rif kirdi. Bu yondashuv avvalgi ta'rlarga ko'ra kengroq va aniqroq bo'lsada, baribir cheklangan edi — strukturalar — o'rtaсидаги munosabatlar (matematika, kategoriyalar nazariyasi, algebraik topologiya), amaliy handa tafbiqiy nazariyalar, xususan, fizika, texnika va ijtimoiy fanlarda matematik modellar bu ta'rif doirasiga sig'avermas edi. So'nggi aseda xilma-xil matematik obyektlar orasida juda chuqur munosabatlar mayjudligi va aynan shunga asoslangan natijalar matematikaning bundan keyingi taraqqiyotida asosiy o'rinni egallashini ko'rsatmoqda Hisoblash texnikasi va kompyuter-vostitalari bilan birga matematika tafbiqlarining kengayishi (telemeditsina, biometriya, sotsiometriya, ekonometrika, planimetriya va b.), matematik usullar hayotning turli sohalariga jadul sur'atlar bilan kirib borayotgani ham Matematika predmetini ischan ta'rif bilan qamrab bo'lmaydigan darajada kengaytirib yubordi. Demak, Matematika aksiomatik nazariyalar va matematik modelлarni, ular orasidagi munosabatlarni o'rganadigan, xulosalari qat'iy mantiqiy mushohadalarni orqali asoslanadigan fandir.

O'quv Qo'llamadda «Matematika tarixi» fanidan seminar mashg'ulotlarning namunaviy mavzulari royxati berilgan.

I – BOB. “MATEMATIKA TARIXI” FANINING SHAKLLANISHI VA AHAMIYATI

1.1. “Matematika tarixi” fanining shakllanishi

Insoniyatning taraqqiyot bosqichlarida fan va madaniyatning ahamiyati o’ta muhim hisoblanadi. Tabiiy fanlar, jumladan matematika fanining ahamiyati esa alohida o’rinda turadi. Bunga, matematika fanining paydo bo’lishi insoniyat paydo bo’lgan davrlarga to’g’ri keladi, chunki o’sha davrida inson ehtiyoji asosan dehqonchilik va chovchilik bilan bog’liq bo’lgan. Bu davr matematikasi asosan analiy masalar, ya’ni yerlarni o’lchash, hosildorlikni boshlash, masofani, og’irlikni o’lchash kabi holatlar bilan bog’liq bo’lgan.

Yillar va asrlar davomida insoniyat rivojlanib, jamiyatlar, davlatlar shakllanishi barobarida matematika fani ham takomillashib bordi. Matematika yordamida yechiladigan masalar mazmunan va shaklan takomillasha bordi va uning tadbiqlari ko’lamni ham kengaydi. Matematika va uning bo’limlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi eramizdan avvalgi uchminginchiligi yillarga borib taqaladi. Matematika tarixinin fan sifatida shakllanishi esa XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to’g’ri keladi. XX asrning o’rtalariga kelib matematika tarixi fani O’zbekistonidagi olyi ta’lim matematika yo’nalishi bo’yicha tahsil olayotgan asosiy fan sifatida o’quv dasurlariga kiritilgan. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda matematika yo’nalishidagi olyi ta’lim muassasalarida xam matematika tarixi fani asosiy fanlar qatorida o’qitiladi. Matematika tarixi bo’yicha ilmiy izlanishlar, taqdiqotlar xar qanday boshqa fanlar tarixi qatorida haqqoniylik prinsiplariga rioya qilgan holda tarixiy faktlar asosida olib boriladi.

Matematika tarixi sohasida ko’plab ilmiy izlanishlar olib borgan va bu sohada samarali ishlab bir nechta ilmiy asarlar e’lon qilgan

chet etlik mutaxassislar, professorlar Stroyk D., Van-der Varden D.I., Rossiyalik matematiklar akademik A.N. Kolmogorov, professorlar Ribnikov K.A., Yushkevich A.P. larning ilmiy ishlari mi’lum. Bu soxada O’zbekistonlik olimlaridan Normatov A.A., Nazarov O., Ismoilov A.I., Normonov A., R.Ibragimovlarning ilmiy ishlari ma’lum. Matematika tarixining fan sifatida shakllanishga buyuk matematik omlar qatorida olyi va o’rta ta’lim muassasalari, o’rta maktablarning matematika fani o’qituvchilarining hissasi ham bor.

Matematika tarixining mustaqil fan sifatida shakllanishiga qonday omillar ta’sir etdi degan savolga, matematikaning paydo bo’ishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarinin ahamiyati katta bo’idi deb javob berishimiz mumkin. Matematika yo’nalishi o’quv yurtlarida matematika yo’nalishi bo’yicha tahlil olayotgan talabalar uchun matematika tarixini bilish, fanning fundamental bosqichini bilishga olib keladi. Buyuk matematik olim. Akademik A.N. Kolmogorovning ta’kidlashi bo’yicha matematika tarixi shartli ravishda to’rtta davrga bo’linadi, Ammo matematikaning XX asr oxini va XXI asr boshlaridagi rivojlanish bosqichi axborot va kompyuter texnologiyalarining yangi imkoniyatlari bilan chambarchas bog’liqligini hisobga olsak, shartli ravishda beshinchli bosqichni ham kiritish mumkin. O’quvchilarni matematika tarixi, bu boradaga kashfiyotlar bilan izchil tanishitira borish ularning dunyo qurashini shakllantirishda, matematikaga bo’lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, universitetlarda, pedagogika olyi o’quv yurtlarida «Matematika tarixi» kursining o’qitilishi talabalar matematika fanining rivojlanish qonuniyatini bilib olishlari, kelgusida maktabda, olyi ta’lim muassasasida matematika tarixidan turli o’quv-tarbiyaviy tadbirlarni umulga oshirishlarida yordam beradi.

Shartli ravishda matematika tarixi asosan beshta davrga bo'linadi. Birichi davr eramizdan awlgi VI-V-II asrlarga to'g'ri keladi. O'sha davrning ehtiyoji sifatida boshlang'ich matematik tasavvurlar shakllanib, son tushunchasi o'lchashlar natijasi sifatida amaliy masalarni yechishda ishlataligan. Bu davrda Evklid geometriyasi, Arximed va Pifagor nazariyalari shakllangan. Ikkinchisi davr eramizning X-XI asrlari, bu davrda matematikaning rivojlanishi bevosita buyuk vatandoshlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Korazmiy, Al Farg'oniy nomlari bilan bog'iq. Bu davrda matematikaga yangi tizimlashtirilgan bilimlar, amaliy masalalarni yechish va ularga nazariy asos ishlab chiqish bilan bog'iq. Jumladan o'nlik sanoq sistemasi, aylamma fazoviy figuralar, ularni hisoblash, shuningdek o'zarmas miqdorlar, algebra masalalari rivojlangan. Uchinchisi davr bu eramizning XVII-XIX-XX asrlariga to'g'ri keladi. Ilg'or mamlakatlarda ijtimoy-iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining evolyutsiyasi matematikaning ixtisoslashuviga asos soldi, differentsiyal va integral hisob, Evklid geometriyasining rivojlanishi Lobachevskiy geometriyasini yangi talqinda shakllanishi, matematik analiz va ehtimollik nazariyasi va matematik statistiki rivojlanishiga olib keldi. Bu davrlarda Nyuton, Leybnits, Veyyershtrass kabi buyuk matematiklar maktabları shakllandi. To'rtinchi davr – matematikaning rivojlanishi zamonaqiy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni keng ko'landa fanga, ishlab chiqarishga va ijtimoiy sohalarning barcha yo'nalishlariga tadbiqi bilan bog'iq. Jumladan abstrakt algebra, kompyuter matematikasi (Kuk), differentsiyal o'yinlar nazariyasi, matematik modellashirish (jumlahan dinamik sistemalarda matematik modellasshtirish) yo'nalishlari keng rivojlandi.

Matematikani rivojlanishdagi beshinchi davri XX asning oxiri va XXI asning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda

kompyuterlarning intellektual imkoniyatlari rivojjanish natijasida matematikaning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Jumladan matematik modellashirish, optimallash nazariyasinинг amaliy tadbiqlari, murakkab dinamik sistemalarni matematik modellasshtirish va hokazolar matematikarivojjanishining so'ngi bosqichiga to'g'ri keladi. Matematikaning so'nggi bosqichidagi rivojlanishi tibbiyot sohasida, kosmosni tadqiq etish, nana texnologiyalar, muqobil energiya yo'nalishlari bilan bevosita bog'iqdirdi.

1.2. Matematika tarixi fanining maqsad va vazifalari

Matematikaning barcha sohaları fanning umumiyligi bilan birlashtiriladi. (algebra, geometriya, matematik analiz, differentsiyal tenglamalar, topologiya, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika va boshqalar). Ma'lumki, haqqoniy borliq olamning fazoviy shakllari va miqdoriy munosabatlarni matematika fanning asosini tashkil qiladi. Turli matematik fanlar ana shu fazoviy shakllari va miqdoriy munosabatlarning hususiy hollari yoki alohida ko'rinishlari bilan ish olib boriladi. Shuningdek, o'ziga xos bo'lgan usullar bilan ajralib chiqishi ham mumkin. Matematika fanning turkbi quyidagicha:

- a) fanning rivojlanishi jarayonida to'plagan ma'lumotlar;
- b) gipotezalar, ya'ni kelajakda tajribalar orqali tekshirilishi talab qilinadigan, ilmiy ma'lumotlarga asoslangan faraz;
- c) olingan natijalarni matematika tilida umumlashtiruvchi, ma'lumotlar, masalan, teoremlar, qoidalar va hokazolar;
- d) matematik metodologiya, ya'ni matematika fanini o'rganishga bo'lgan umumiyy yondashishini ko'rsatuvchi matematik nazariya va qoidalarni umumnazariy talqin qilish. Bu elementlarning barchasi bir – biri bilan uzviy aloqada bo'jadi hamda uzlusiz ravishda rivojlanib turadi. O'rganilayotgan tarixiy davrda bu rivojlanishning

qanday bo'lganini, qaysi tomonga borganini aniqlash masalasi matematik fanlardan biri bo'lgan matematika tarixi fanning asosiy vazifasini tashkil qiladi. Matematika tarixi fani matematika rivojanishining obyektiv qonunlari o'rGANUVchi fandir. Tarixiy – matematik izlanishlar quydagi yo'naliishlarda olib borilmoqda:

a) tarixiy matematik xarakterdagi ishlarda matematikaning tarixiy rivojanishning xaqqoni **mazmuning boyligi** qayta tiklanadi. Ularda matematik usullar, tushunchalar va g'oyalar qanday paydo bo'lganligi yoritib beriladi, boshqa matematik nazariyalarning tarixi qanday bo'lganligi aks ettiladi. Ma'lum bir tarixiy davrda alohida halqlarda matematika rivojanishning harakteri va o'ziga xos bo'lgan tomonlari, tarixdagi buyuk matematiklarning, birinchi navbatda o'zbek matematiklarining fanni rivojanishi uchun qo'shgan hissalarini aniqlanadi.

b) Tarixiy – matematik xarakterdagi ishlar matematikaning **ko'p qirrali aloqalarini ochib beradi**. Ularning orasida amaliy ehtiyoj bilan, insoniy faoliyat bilan, boshqa fanlarning rivojanishi bilan bog'liq aloqa, jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy strukturasi rivojlanishi matematika rivoji mazmuni va xarakteriga ta'siri, xalqlar, olimlar, olimlar guruhining fandagi o'mni va hakozolarni alohida ko'rsatish mumkin.

c) Matematika tarixi bo'yicha izlanishlar zamonaviy matematik mantiqiy strukturasining tarixiy bog'langanligini, uning rivojanish dialektikasini ochib beradi, matematikaning turli bo'limlari orasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi, fanning rivojlanish **is'qibollarini ma'lumib** darajada belgilab beradi.

1.3. Matematikaning paydo bo'lishi va rivojanishida amaliyotning ahamiyati

Amaliyotning matematika rivojanishdagi roli. Matematika eng qadimgi fanlardan biri hisoblanadi. Odamlar ibtidoy

davlardanoq, hattoki nukammal bo'lmagan dehqonchilik ishlarida ham dunyoni matematik tushinishni o'rganishgan. Bu faoliyatning murakkablanishiqaqarab, matematikaning rivojanishiga ta'sir qiluvchi faktorlar jamg'armasi ham o'zgarib boradi. Fan sifatida paydo bo'lganidan boshlab matematika faniga yangi tushuncha va uslublarnishakllantirishda, eng katta ta'sirni tabiiy matematika (ya'ni, rivojanishning joriy bosqichidamatematik usullarini qo'llash mumkin bo'lgan tabiat haqidagi fanlar kompleksi) ko'rsatdi.

Qadimda matematikaning rivojanishiga avvalo o'sha davr odamlarining amaliy faoliyatini, ya'ni dehqonchilik, chorvachilik

mehnat qurollarini ixtiro qilishi kabi omillar ta'sir etgan. Masalan, qadimgi Xitoy manbaalaridagi toshyozuvlarda ham matematikaga oid masalalar o'yib yozilgan. Umuman olganda matematikaning rivoji qadimdag'i jamiyatarning rivojiga ijobjiy ta'sir qilgan va uning abstraklashuvi insonlar ongini, tasawurini kegatyirishga daxldor bo'lgan. Keyinchalik matematikaning rivojiga bevosita astronomiya, mexanika, fizika kabi fanlar kuchli turki bergan. Masalan, differentsiyal va integralhisob. Mexanika va osmon mexanikasi masalalarini yechishning eng umumiy usuli sifatida yuzaga kelgan; ko'pxadlar nazariyasibug' mashinasini ixtiro qilinishiga sabab bo'lgan (akad. P. L. Chebishev). Eng kichik kvadrallar usuli – geodezyaning rivojlanisiga nazariy asos bo'lgan (K.F. Gauss). Hozirgi vaqtida zamonaviy texnika yangi sohalarinin bevosita talabi bilan; kombinatorik analiz, differentsiyal va integral tenglamalar taqribiy yechish usullari, chekli gruppalar nazariyasi va boshqalar bevosita amaliyot bilan bog'liqdir. Ularni hammasi shuni ko'rsatadiki, matematika insonlarning kundalik mehnat faoliyati natijasida yuzaga kelgan va matematika tabiiy fanlar ta'siri ostida tushuncha va usullar shakllangan. Matematikaning aniq fan sifatida shakllanishi matematik nazariyaming amaliy muammolarga tadbiq qilish hamda masalalarini yechishning yangi usullarini ishlab chiqish natijasida maydonga chiqdi. U yoki bu matematik nazariyani amaliyotda qo'llash mumkinligi haqidagi muammo har doimham birdaniga (bunga yillar, hatto bir necha o'n yillar kerak bo'lishi ham mumkin) qoniqartli yechim beravermaydi. Masalan, gruppalar nazariyasi – Lagranj – algebraik tenglama yechimlarini o'rinn almashtirishlari gruppasi, ularni radikallarda yechish muammosini hal qilinish munosabati bilan bog'liq. E, Galua –ixtiyoriy darajasi algebraik tenglamalarni yechimining mavjudligini umumiy shartlari, XIX asning o'rtalari, A. Keli – gruppalarning umumiy abstrak ta'rif, S. Li – uzlusiz gruppalar nazariyasiga atganlar va ularning

analoyga tadbiqlari bimecha o'n yilliklardan keyin tadbiq qiltingan. 1980 yillarda S. Feodorov gruppalar nazariyasini telstallografiyada, keyinchalik kvant fizikasida qo'llanilishini avosladи. O'z navbatida amaliyot, xususan texnika matematika lomly izlanishlarning qo'shimcha vositasi sifatida kirib bormoqda. Ayniqsa, kompyuterlar matematika yordamida yechiladigan masalalarsinfini kengaytirdi va bu borada cheklanmagan inkoniyatlarni ochib berdi. Ammo, kompyuterlar hozircha yordamchi vosita bo'lib qoladi, chunki, u insonlarga xos bo'lgan filkovochi miyaning xususiyatlarini qabul qila olganicha yo'q. So'nggi yigirma-o'ttiz yillarda bu sohada kompyuter matematikasi (Kuk) va sun'iy intellektning nazariy va analiy rivoji matematikaning yangi bilimlariga asoslanadi.

1.4. Matematika tarixining asosiy davrlari

Shartli ravishda matematika tarixi asosan beshta davrga bo'linadi. Buyuk rus matematigi A.N.Kolmogorovning talqini bo'yicha matematika tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi.

Birichi davreranizdan awgi VI-V-III asrlarga to'g'ri keladi. O'sha davrning ehtiyoji sifatida boshlang'ich matematik tasawurlar shakllanib, son tushunchasi o'chashlar natijasi sifatida amaliy masalalarini yechishda ishlataligan. Bu davrda Evklid geometriyasi, Arximed va Pifagor nazariyaları shakllangan.



Andrey Nikolayevich Kolmogorov (1903 – 1987 y.y.)

Ikkinchı davr ikkinchi davr eramizingning X-XI asrlari, bu davrda matematikaning rivojanishi bevosita buyuk vatandoshlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Al Farg'onyi nomlari bilan bog'liq. Bu davrda matematikaga yangi tizimlashtirilgan bilimlar, amaliy masalalarni yechish va ularga nazariy asos ishlab chiqish bilan bog'liq. Jumladan o'nlik sanoq sistemasi, ayonna fazoviy figuralar, ulani hisoblash, shuningdek o'zarmas miqdorlar, algebra masalalari rivojlangan.

Uchinchi davr bu eramizing XVII-XIX-XX asrlariga to'g'ri keladi. Ilg'or manlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining evolyutsiyasi matematikaning ixisoslashuviga asos soldi, differentzial va integral hisob, Evklid geometriyasining rivojanishi Lobachevskiy geometriyasini yangi talqinda shakllanishi, matematik analiz va ehtiimollik nazariyasi va matematik statistikani rivojlanishiga olib keldi. Bu davrlarda Nyuton, Leybnits, Veyyershass kabi buyuk matematiklar maktablari shakllandi. **To'rinchı davr** – matematikaning rivojlanishi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni keng ko'lama fanga, ishlab chiqarishga va ijtimoiy sohalarning barcha yo'nalishlariga tadbipi bilan bog'liq. Jumladan abstrakt

algebra, kompyuter matematikasi (Kuk), differensial o'yinlar nuzariyasi, matematik modellashtirish (jumladan dinamik sistemalarda matematik modellashtirish) yo'nalishlari keng rivojlandi. Matematikani rivojlanishdagi **beshinchı-davri** XX asming oxiri va XXI asming bosqlariga to'g'ri keladi. Bu davrda kompyuterlarning intellektual imkoniyatlari rivojlanish natijasida matematikaning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Jumladan matematik modellasshtirish, optimallash nazariyasining amaliy tadbiqlari, murakkab dinamik sistemalarni matematik modellasshtirish va hokazolar matematika rivojlanishining so'nggi bosqichiga to'g'ri keladi. Matematikaning so'nggi bosqichidagi rivojlanishi tibbiyot sohasida, kosmosni tadqiq etish, nana texnologiyalar, muqobil energiya yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqidir.


Nazorat savollari:

1. Matematika tarixi fan sifatida, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Matematika fanining tarkibini izohlang.
3. Matematika tarixi bo'yicha izlanishlar zamonaviy matematika manbiqiy strukturasining tarixiy bog'langanligini tushuntirib bering.
4. Matematikaning rivojlanishiga awvalo fanlar va amaliyotning qaysi yo'nalishlari kuchli ta'sir etdi.
5. Amaliyotning matematika rivojlanishdagi roli nimalardan iborat?
6. Matematika tarixining asosiy davrlarini tasvirlab bering.

II – BOB ANTİK DAVR MATEMATIKASI

2.1.Qadimgi Yunonistonda dastlabki matematik bilimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi

Eramizdan avvalgi VI asrgacha Yunon matematikasi alohida ajralib chiqmagan bo'lil uning kurtaklari oddiy arifmetikadan nariga o'tmagan, oddiy hisob va o'ichashlar bilan chegaralangan xolos. Dastlabki hisob tushunchalarda raqamlar, masalan 1,5,10, 50, 100 i 1000 raqamlari belgililar, jumladan *antik yokigerodian* belgilar yordamida ifodalangan. Keyinchalik yunon nomerlash tizimiga Rimliklarning additiv, ya'ni qoshish amali kiritilgan. Uning asosida hisob taxtachasi –*abak* yaratilgan bo'lib, unda kichik toshlardan foydalananishgan. Darvoqe, kalkulyatsiya atamasi *calculus* - kichik toshchalar ma'nosini angatgan, jumladan kichik teshik toshcha nol sonimi ifodalagan. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib *Yunoniston*(Gretsya)da kuchli quldarlik davlati (davlat - shaharlar -polislar) vujudga keladi.



Qadimgi Yunonistonda saqlanib qolgan inshootlar

Tarixiy yodgorliklar Yunoniston davlatida texnika, fan, qurilish va madaniyat yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Yirik quldarlik davlatlarning birlashmasi bulgan Gretsiyada; Milet, Korinf, Afina; Italiyada Sirakuza, Sitsilia, Rim va boshqalar mustahkamlanib, boyib asosiy shaharlarga aylandi. Bu davrga kelib matematika dastlabioniylar(ioniy skaya, Mileskiy, Anaksimen,

paydo bo'lishi

Anuksimander) – VII – VI (e.o), so'ng VI – V (e.o) asrlarda *pythagoriyilar*, keyinroq esa V(e.o) asrlarda *afinamaktablari* vujudga keldi. Bu maktablarda asosan tibbiyot va filosofiya masalalari bilan quidorlar va boy savdogartar shug'ullanishgan.

Bu davr *matematikasida arifmetik hisoblashlar*, geometrik o'lehashlar va yasashlar asosiy rolini yo'qotmagan bo'lib, ular asta - seklinlik bilan matematikaning u yoki bu bo'lmlariga gruppalana boshladi. Agarda sharq matematikasi asosan "qunday?" degan savolga javob bergan bo'lsa, grek matematikasi esa bunga qo'shimcha "*nima uchun?*" degan ilmiy savolga javob berishga harakat qilgan. Yunon matematikasining ilk shakllanish davri hadida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. *Matematika tarixini* 'rganuvchi olimlardan Tanneri, Xis, Seyten, Frank va boshqalarning izlanishlari natijasida bu davr haqidagi matematikadan ko'pgina ma'lumotlar ma'lum bo'ldi. Bizgacha yetib kelgan to'liq matematik asarlardan e.o. IV asrga oid bo'lgan Yevklid, Arximed, Apoloniy asarlari dir.



Evklid Qadimgi Yunonistondan qolgan

inshootlar

Bulardan *matematika ilmiy fan* sifatida shakllanib bo'lgan edi. E.o. 430 yilga kelib, Afina, Gretsya imperiyasining markaziga iylandi (oltin davri). Matematikanazariy asosda bayon etila boshlandi. Tarixda birinchi marta matematikaga tanqidiy yondashadigan olimlar (*sofistilar*) paydo bo'la boshlashdi. Bu davr

sofistlari haqida juda ham kam ma'lumotlar saqlangan. Bizzacha to'liq saqlanib kelgani Xiopslik faylasu'f Gippokratning matematik asaridir. Bu asar matematik mulohazalarning yetarlicha to'liqligi va nazary masalalarni ko'tariishi bilan ahamiyatga molikdir.

Bunda:

- 1) Ikkita doira *yoylaribili* bilan chegaralangan yaproqlarning (tekis figura) yuzini hisoblash (kvadratura).
- 2) O'xshash doiraviy segmentlar yuzalarining nisbati, ularni tortib turuvchi *vaturarkvadratlarning* nisbati kabi.
- 3) Uchburchaklar tengsizligi va *Pifagorteoremasi*.
- 4) Antik davrining asosiy masalalari (1.Burchakni uchga bo'lish, 2.Kubni ikkilantirish, 3. Doirani kvadratlash) haqida ma'lumotlar bo'lib, *aksionaiikani* dastlabki qadamlari qo'yildi, mantiqiy xulosa chiqarish prinsipi qo'llanildi.



Qadimgi Yunonlarda uch asosiy masalaning shakllanishi

Irratsional sonlarni kashf etilishi matematikaning nazariy asoslarini yaratish uchun asosiy sabablardan biri bo'ldi. Chunki hali mustahkam asosga ega bo'igan Yunon matematikasi irratsionallik tufayli sonlar nazariyasi va geometriyada katta qiyinchiliklarga duch keldi. Chunki buning natijasida metrik geometriya va o'xshashlik kabi nazariyalarni tushuntirish qiyin bo'lib qoldi. Kashf qilingan faktni mohiyatini ilmiy asosda tushunish va uni tarkib topgan tasawurlar bilan muvoqilaشتirish matematikani bundan buyongi rivojlanishi uchun katta turki bo'idi.

Ratsional sonlar bilan bir qatorda irratsional sonlar uchun ham yaroqli bo'lgan matematik nazariyani yaratishga bo'lgan urinish natijasida geometrik algebra nomi bilan yangi yo'nalish yaratildi. Anno geometrik algebraning kamchiligi shundan iborat bo'lib qoldiki, chizg'ich va sirkul yordamida hal etish mumkin bo'lgan masalalar ham yetarlicha ekan. Bunday masalalar turkumiga: kubni ikkilantirish, burchakni teng uchga bo'lish, doirani kvadratlash va boshqalar kiradi.

1. Kubni ikkilantirish, ya'ni hajmi berilgan kub hajmidan ikki

1. Ular sonlarni juft - toq, tub va murakkab, mukammal, qo'shalok (druijeski), uchburchakli, kvadratli, beshburchakli va hakozo sinflarga ajratganlar. Hozirgi *ko'rinishlari* uardan meros.
2. Muntazam ko'pyoqlarning va muntazam ko'pburchakkarning xossalari;

3. Tekislikni muntazam uchburchaklar (yoki to'rburchaklar, yoki oltiburchak) sistemasi bilan *qoplashusuli*, fazoni esa - Kublar sistemasi bilan koplash usulini bilganlar.

2.2. Qadimgi Yunonlarda uch asosiy masalaning shakllanishi

Irratsional sonlarni kashf etilishi matematikaning nazariy asoslarini yaratish uchun asosiy sabablardan biri bo'ldi. Chunki hali mustahkam asosga ega bo'igan Yunon matematikasi irratsionallik tufayli sonlar nazariyasi va geometriyada katta qiyinchiliklarga duch keldi. Chunki buning natijasida metrik geometriya va o'xshashlik kabi nazariyalarni tushuntirish qiyin bo'lib qoldi. Kashf qilingan faktni mohiyatini ilmiy asosda tushunish va uni tarkib topgan tasawurlar bilan muvoqilaشتirish matematikani bundan buyongi rivojlanishi uchun katta turki bo'idi. Ratsional sonlar bilan bir qatorda irratsional sonlar uchun ham yaroqli bo'lgan matematik nazariyani yaratishga bo'lgan urinish natijasida geometrik algebra nomi bilan yangi yo'nalish yaratildi. Anno geometrik algebraning kamchiligi shundan iborat bo'lib qoldiki, chizg'ich va sirkul yordamida hal etish mumkin bo'lgan masalalar ham yetarlicha ekan. Bunday masalalar turkumiga: kubni ikkilantirish, burchakni teng uchga bo'lish, doirani kvadratlash va boshqalar kiradi.

1. *Kubni ikkilantirish*, ya'ni hajmi berilgan kub hajmidan ikki marta katta bo'lgan kubni yasash. Berilgan kub qirrasi a ga teng bo'lsin, u holda yangi kub qirrasini x desak, masala $x^3=2a^3$

tenglamani yechishga, yoki $3 \cdot 2$ kesmani yasashga keladi. Quyida Xiopslik Gippokrat (e.o. V asr o'rtasi) tomonidan tavsija etilgan usul bilan tanishaylik. U masalani umumiyroq qilib qo'yadi, ya'ni parallelopeddan kub hosil qilish. Buni u ikkita o'rta proporsionalni topish masalasiga olib keladi.

Bu esa konus kesimlari ko'rnishida hal bo'ladigan masaladir. Boshqa ko'rnishda Eratosfen kubni taqriran ikkilantridagan qurilma (mezolabiy) yasagan. Muammoning bundan keyingi taqdiri haqida 1637 yilda Dekart bu masalani yechish mumkinligiga shubha bildiradi. 1837 yilda Ventsel bu masalani uzl-kesil hal qiladi, ya'ni kubik irratsional sonlar ratsional sonlar to'plamiga ham va uni kvadrat irratsionallik bilan kengaytirilgan to'plamiga ham tegishli emasligini isbottaydi. Demak, masalanichizg'ich va sirkul yordamida hal qilib bo'lmash ekan.

2. *Burchakni teng uchga bo'lish.* Antik davning ikkinchi mashhur masalasi bu ixтиорији burchakni geometrik algebra usullari bilan teng uchga bo'lishdir. Bu masala ham oldingisi kabi uchinchi darajali tenglamani yechishga ketiriladi, ya'ni $a=4x^3-3xy+3$ trigonometrik ko'rnishda cosa = $4\cos^3(1/3)-3\cos(1/3)$.

3. *Yuzasi kvadrat yuziga teng bo'lgan doirani topish.* Doiraning yuzin², kvadrat yuzix². U holda $\pi^2 = x^2$, πx bo'lib, ning arifmetik tabiatli ochilmaguncha bu muammo ham yechimini kutib turdi. Faqt XVIII asrga kelib I. Lambert va A. Lejandrarni ratsional son emasligini isbotladilar. 1882 yilda Lindemann transsendent son ekanligini, ya'ni u hech qanday butun koeffitsiyentli algebraik tenglamaning idizi bo'la olmasligini isbotladi. Albatta antik matematiklar bulami bilmaganlar. Ular muammo hal qilish davomida ko'plab yangi faktlarni va metodlarni kashf qildilar, shubhasiz bular matematikani rivojlantirish uchun katta hissa qo'shdi. Ba'zi xususiy hollar uchun muammo hal qilishga erishdilar. Jumladan, Gippokrat masalasi.



1. Diametrغا tiralgan va radiusi 2π ga teng yaproqcha. Bunda yaproqcha yuzi diametri gipotenuza vazifasini bajaruvchi teng yonli to'g'ri burchakli uchburchak ABC yuziga teng.
2. Tomonlari 1, 1, 1, 3 bo'lgan trapetsiyaga chizilgan tashqi aylana, 3 tomonni esa vatar qilib, boshqa 3 ta segmentga o'xshash

segment yasaymiz. Natijada hosil bo'lgan yaproqcha yuzi trapetsiya yuziga teng. Bunda Gippokrat "O'xshash segmentlar yuzalurining nisbati ular tiralgan diametrler nisbatining kvadratiga proportional" degan teorema asoslangan. Bunday yaproqlar soni qancha degan savolga javob ochiq qolaveradi. 1840 yilda nemis matematigi Klauzen yana 2 ta yaproqcha topadi. XX asrda sovet matematiklari Chebotarev va Dorodnovlar tomonidan to'liq javob topildi, ya'ni agar yaproqchalarining tashqi va ichki yoyslarining burchak qiymatlari o'zaro o'lchamli bo'lsa, u holda masala yechimiga ega, aks holda yo'q. Shunga ko'ra 2 3 1 3 2 5 1 5 3 , , , bo'lib, boshqa yaproqchalar kvadratlanmaydi. Masalaning qo'yilishining o'ziyoq bizda unichizg'ich va sirkul yordamida hal qilib bo'lmasligini anglatadi.

Yunon matematikasini deduktiv fan sifatida shakllanishi.

Euklidning "BOSHLANG'ICH"lari. E.O. 323 yili Aleksandr Makedonskiy Vavilonlonda vafot etadi. Uning lashkarboshihlari katta imperiyani bo'lib oladilar. Misrda Ptolomeylar hukmdorligi o'tutiladi. Aleksandriya shahri dengiz bo'yida joylashganligi ya'ni port shahri bo'lgani, texnikani jamlaganligi savdo – sotiq uchun quayligi uni yangi davlatning xo'jalik va boshqarish markaziga aylantirdi. Bu quayliklar Ptolomeylarni Aleksandriya shahrida ilmiy – o'quv markazi – Muzeyon tashkil etishga, bu markazga yirik olimlarni jamlash (oylik to'lash asosida) ilmiy ishlarni va o'qitish ishlarni yo'nga qo'yishni tashkil etdi. Bu Muzeyon 700 yil davomida ilmiy markaz bo'lib qoldi va bu yerda 500 mingdan ortiq o'lyozmalar jamlandi. Shundan so'ng reaksiyoner xristianlar tomonidan boshqa tillik olimlar quvg'in qilindi yoki o'idiridi, Muzeyonni esa taladilar va oxiri o't qo'yildilar. 700 yil davomida bu ilmiy markazda ko'plab antik olimlar ishladilar. Bulardan: Evklid (e.o. 360 – 283), Apolloniy (e.o. 260), Diofant (e.o. 250), Eratosfen

(e.o. 250), Menelay (e.o.100), Ptolomey (e.o.150), Aristotel (e.o. 384 – 322) va boshqalar.



Гіфагор

Архимед

Евклид

Фалес

Заратустер

Antik dawr matematik olimlari.

Qadimgi Yunonistondagi ilmiy markaz – Muzeyon va Afina ilmiy maktabları.

Konkret masalalarni yechishda abstraktlash, bir xil tipdagı masalalarni yechish natijasida matematikanı rang-barangligi va mustaqilligi oshkorra bo'la boshladi. Bu faktlar matematik bilimlarni sistemalashitish va uning asoslarini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish zaruriyatini qo'yди. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda Aristotel va Demokritlarning falsafiy dunyoqarashlari, hamda mantiq fanining yutuqlari katta rol o'ynadi. Bu davrga kelib fikrlashning asosiy formalari shakklangan, sistemalashgan va ilmiy ishlab chiqarilgan bo'lib, deduktiv fan qurishning asosiy prinsiplari ilgari surilgan edi. Bu prinsipa ko'ra mantiqan murakkablashib boruvchi fan aksiomalar sistemasi asosida qo'yilishi kerak.

Matematika esa aynan shunday fan edi.

Shundan so'ng matematika Evlidning "Boshlang'ichlar" ni shulardan eng mashhur asar bilan tanishaylik. Evklidning o'zi Aristotel prinsipi asosida kitob yozishni maqsad qilib qo'yan bolsa kerak, natijada esa matematik bilimlar ensiklopediyasi vujudga keladi. Boshlang'ichlar 13 ta kitobdan iborat. Bularning har birida teoremlar ketma-ketligi bor. 1 – kitob: ta'rif, aksioma va postulatlardan berilgan. Boshqa kitoblarda faqat ta'riflar uchraydi. Ta'rif – bu shunday jumlaki, uning yordamida avtor matematik tushunchalarini izohlaydi. Massalan: "nuqta bu shundayki, u qismiga ega emas" yoki "kub shunday jismki, u teng oltita kvadrat bilan chegaralangan". Aksioma – bu shunday jumlaki, uning yordamida mulif miqdorlarning tengligi va tengsizligini kiritadi. Jami aksiomalar 5 ta bo'lib, bular Evdoks aksiomalar sistemasidir:

- 1, $a = v, v = s \Rightarrow a = s;$
- 2, $a = v, s a + s = v + s;$
- 3, $a = v, s a - s = v - s$
- 4, $a = v \vee v = a;$
- 5, Butun qismidan katta.

Postulat – bu shunday jumlaki, uning yordamida geometrik yosholar tasdiqlanadi va algoritmik operatsiyalar asoslanadi. Jami postulatlar beshta:

- 1, Har qanday ikki nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkazish mungkin.

2. To'g'ri chiziq kesmasini cheksiz davom ettirish mumkin.

3. Xar qanday markazzdan istalgan radiusda aylana chizish mumkin.


4. Xamma to'g'ri burchaklar teng.

5. Agar bir tekislikda yotuvchi ikki to'g'ri chiziq uchinchisi to'g'ri chiziq bilan kesilsa va bunda ichki bir tomonli burchaklar yig'indisi 180 gradusdan kichik bo'lsa, u holda to'g'ri chiziqlar shu tarafda kesisiladi.

Endi "Boshlang'ichlar" ning mazmuni bilan tanishaylik. I – VI kitoblar planimetriyaga bag'ishlangan. VII – IX kitoblar arifmetikaga bag'ishlangan. X – kitob bikvadrat irrasionallliklarga bag'ishlangan. XI – XIII kitoblar stremetriyaga bag'ishlangan. I – kitobda asosiy yasashlar, kesmalar va burchaklar ustida amallar, uchburghak, to'rburchak va parallelogramm xossalari hamda bu figuralar yuzalarini taqoslash berilgan bo'lib, Pifagor teoremasi va unga teskari teorema bilan yakunlanadi. 2 – kitob geometrik algebraga bag'ishlangan bo'lib, bunda to'g'ri to'rburchak va kvadrat yuzlari orasidagi munosabatlardan algebraik ayniyatlarni interpretatsiya qilish uchun bo'yundirilgan. 3 – kitob aylana va doira, vatar va urinma, markaziy va ichki chizilgan burchaklar xossalariiga bag'ishlangan. 4 – kitob ichki va tashqi chizilgan muttazam ko'pburchaklar xossalariiga bag'ishlangan. Muntazam 3, 4, 5, 6 va 15 burchaklarni yasashga bag'ishlangan. 5 – kitob nisbatlar nazariyasi bilan boshlanib (Yevdoks nazariyasi bo'lib, hozirgi zamон haqiqiy sonlar nazariyasing Dedeckind kesmalariga mos keladi), proporsiyalar nazariyasi rivojlantirilgan. 6 – kitob nisbatlar nazariyasing geometriyaga tatbiq etilib umumiy asosga ega bol'gan to'g'ri to'rburchaklar va parallelogramm yuzalarining nisbatlari, burchak tomonlarini parallel to'g'ri chiziqlar bilan kesganda hosil bo'ladigan kesmalarning proporsionalligi, oxshash

figularlar va ular yuzalarining nisbati haqidagi teoremlar qaratildi. 8 = klob-oldingi nazariya davom ettirilib uzlusiz sonli proporsiyalar bilan yakunlanadi.

Shunga qaramasdan «Boshlang'ichlar» qariyib 2000 yil davomida butun geo-metrik izlanishlarning assosi bo'llib xizmat qiladi. Yuqoridaqichichiliklarni bartaraft etish va o'sib borayotgan matematik qat'iylikni ta'minlash uchun juda ko'p urinishlar bo'ldi. Hunga misol 1882 yili Pasha ishlari, 1889 yili Peano ishlari, 1899 yili Pyeri ishlarini aytish mumkin. Lekin 1899 yili Gilbertning "Geometriya asoslar" da keltirilgan aksiomalar sistemasi hamma tonondan tan olindi. Asosiy tushunchalar: nuqta, to'g'ri chiziq, tekistik, tegishli, orasi-da, kongruyent. Beshta grupper aksiomalar: 8 ta birlashuvchi tegishlilik; 4 ta tartib; 5 ta kongruyentlik yoki harakat; 2 ta uzluksizlik. Bular evklidniga qaraganda yuqori darsajuda predmetlarni fazoviy va miqdoriy abstraktsiyalash imkonini beradi.



Arximed (e.av. 287 ï)Qadimgi Yunoniston manzalari

2.3. Qadimgi Yunonistonda matematikani shakllanishining falsafiy asoslari Demokrit ta'limoti

Demokrit (Demokritos) [taxminan e.av. 460 — Abderi (Frakiya) — 370] — yunon faylasufi. Atomistik nazarriya asoschilaridan biri. Falsafa, mantiq, fizika, matematika, texnika, axloq, musiqa kabi sohalarda asarlardan yaratgan. Bizgacha bularning ayrim parchalari yetib kelgan. Demokrit ta'limotiga ko'ra, tabiat obyektiv ravishda mayjud. Tabiatdagi barcha narsa va hodisalar bo'linmas zarralar — atomlardan tashkil topgan.



Atomlar eng mayda, bo'linmas va o'zgarmas, boqiy, moddiy zarralar bo'lib, fazoda doimo har tomonga harakat qiladi. Zarralarning har xil qo'shiluvidan turli narsalar vujudga kelgan. Hatto odamning joni ham eng nozik harakatchan atomlardan tashkil topgan. Atomlar hajmi, shakli, tartibi va holati bilan bir-biridan farq qiladi; sifat jihatdan esa bir xil, ya'ni rang, hid, maza kabi sifatlar atomga tegishli bo'lmay, balki subyekt sezgi organlari mahsulidir. Atomlar bilan bir qatorda bo'shlilq mayjud. Atomlar harakati tasodifly bo'lmay, muayyan qonuniyatlarga bo'yusungan holda bo'shlida sodir bo'ladi. Harakatni materiyadan ajratish mumkin emas. Atomlar harakatning vaqt nuqtai nazaridan boshi yo'q, u abadiy. Demokrit olam cheksiz va abadiy, dunyolar vujudga kelib.

yó'q bo'lib turadi, Jon ham moddiy va tana bilan birga o'ladi degan filqlarni ilgari surdi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olanni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidladi, bilish joriyonida sezgi va tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha, sezgilarimiz (ko'tish, eshitish, maza bilish va b.) orqali olingan bilim «qorong'i», u olunning mohiyatini ochib bera olmaydi. Aql orqali olingan bilim «yorug», haqiqiy bilimdir. Bu yerda Demokrit hodisa va mohiyatni tuhuna boshlagani, hissiy bilish bilan abstrakt tafakkurni farq qila olgani ko'rinib turipti. Lekin, u «yorug» bilishni «qorong'i» bilishdan ajratib qo'ygan. Demokritning bu fikri J. Lokk tomonidan ijarai surilgan narsalarning birlanchi va ikkilanchi sifati to'g'risidagi ta'limotning kurtagi edi. Demokrit etkada ataraksiya ta'limotini rivojlantirdi. Demokrit ilgari surgan g'oyalar uzoq yillar davomida fan va falsafa rivojiga ta'sir ko'rsatdi.

Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar orasida Demokrit hikmatlari mayjud:

1.Insonning jismiy go'zalligida ayol yashiringan bo'lsa, u holda bu go'zallik hayvon sifatidir.

2.Ega bo'lmagan narsalarga afsuslanmay, bor narsasiga qanoat qiladigan kishi donodir.

3.Vijdonli va vijdonsiz insomni nafaqat qilayotgan ishi,balki o'malarni istashlari orqali bilishi mumkin.

4.Jasur kishi dushtumanining ustidan g'alaba qozonuvchi emas,balki u o'z ehtiroslarini tiya oladigan kishidir.

5.Ba'zilar davlatni boshqara oladilaru ayni bir paytda ayollaringin quli bo'ladiilar.

6,Baxtsizlikda burchga sodiq bo'lish ulug' ishdir.

7.Meyor buzilsa, eng yoqimli narsa eng yoqimsiz narsaga oylandi.

8.Shuxrat va boylik telbalik, ular mustahkam bo'lmagan mulkdir.

9.Boshqalarning kamchiligini davom ettruvchi kishi do'stlik o'matishga qodir emas.

10.Donishmand qonunlarga bo'yusumay, erkin yashashi kerak.

Qadimgi Yunonistonning ko'pgina matematik olimlari cheksizlik tushunchasini kiritishda Demokritning zarrachalar ta'limotiiga asoslanganlar


Nazorat savollari:

- 1.Eramizzdan avvalgi VI asrdan to V asrgacha Yunon-Pim xalqlarida matematika qanday shakllangan ?
2. Matematikani deduktiv fan sifatida shakllanishini izohlang.
3. Butun va ratsional sonlar arifmetikasi xususiyatlarini aniqlang.
- 4.Qadimgi Yunonistonda matematikadan uch asosiy masalaning shakllanishi, irrationallik tushunchasi.
4. Qadimgi Yunonistonda matematikani shakllanishining falsafiy asoslari.

III – BOB. IX -XI ASRLARDA MARKAZIY VA O'RTA OSIVO XALQLARI MATEMATIKASI

3.1.Qadimgi sharq xalqlari matematikasi (Xitoy).

Umumiyyat mullumotlar. Rim imperiyasi inqirozidan ancha avvalroq Uzoq Sharqda-Xitoy va Hindistonda matematika fani bo'yicha keskin o'zgarishlar sodir bo'idi. Bu o'zgarishlar keyinchalik Eron, O'rta Osivo va keyinchalik Yevropaga tarqaldi. Xitoy matematikasi haqidagi qisqa materiallar eramizzdan avvalgi 2 ming yillikning o'rtalariga borib taqaladi. Ularda asosan kalendor masalariga suyaniladi. Chunki, shu davrda anholining asosiy mashg'ulot dehqonchilik bo'lib, ekinnarni ekish va yig'ish muddatlarini aniqlash butun xo'jalik uchun hal qiluvchi rolni o'ynar edi. Shu maqsadda, ayrim yulduzarning joylashuvini, teng kunlilikni, quyoshli kunlarni qayd qilish uchun saroylarda maxsus kishilarni tayinlangan edi.



Yilning uzunligi 365,25 kunligi Xitoyliklar eramizzdan avvalgi 600 yillardayoq aniqlagan bo'lib, har 19 yilda 7 qo'shinchcha oyni kalendarga qo'shishgan. 19 yillik quyosh kalendari 235 oy

kalendaridan bir sukkadan kamroqqa farq qilgan. Gretsiyada, Afinalik Meton bunday kalendarni 150 yil keyinroq joriy qilgan. Bizgacha maxsus yetib kelgan kitoblarning eng qadimgisi «To'qqiz kitobli matematika» hisoblanadi. Unda eramizdan oldingi 206-yillardagi Xan dinasiyasi davridagi matematikaga oid boy materiallar ketirilgan. Shu davrdan sal oldinroq Buyuk Xitoy devorini qurish boshlangan edi. Xan dinasiyasingin rahbarlari yo'l qurilishini, davlatni boshqarishni, mayjud soliq tizimini, aholini mexnatga jalg qilishni qattiq nazorat qilar edilar. Bundan tashqari, Shu davrida yulduzlar xaritasini va quyosh kalendarini mukammallahshirish ishlari olib borildi. Muomaladagi suv soatlari o'rninga quyosh soatlari joriy qilina boshlandi. Buyuk astronom Chjan Xen (e.o. II-I asrlar) aylanuvchi globus va planetariy ixtirochisi, yerning sfera shaklida ekanligi, fazo, vaqt va kosmosning cheksiz ekanligi haqidagi ta'limotni oldingga surgan.

Tan dinasiyasi (618-907 yillar) davrida Xitoy Tinch okeanidan to Tibetgacha bo'lgan buyuk davlat edi. Katta shaharlarda hunarmandchilik avj olgan edi. VII asrda taxta yordamida kitob chop qilish, XI asrda esa harakatli shrift bilan kitob chop qilish qurilmasi yaratildi. Qog'ozni esa I aslardayok ishlab chiqish boshlangan edi. XIII asrda uzunligi 1700 km li sug'orish tizimi ishlab chiqildi. Tan dinasiyasi davrida xalqaro aloqalar rivojlandi. Eramizdan oldigi II asrlardayok O'rta Osyo bilan savdo ishlari olib borilgan. O'ziga xos bo'lgan davlat apparati joriy qilindi. Unda Olimlar kengashi hamda Astronomik byuro ta'sis qilingan edi. Maorif tizimida matematikaga katta e'tibor berildi. Tan dinasiyasi imperatorlik o'quv programmasida 6 fan bo'lib, undan matematika imtixonlar jiddiy yo'lga qo'yilgan edi. Davlat rivoji uchun diplomli matematiklardan 3260 natari birligina imperator Tay-Tszun (627-649 yillar) davrida xizmat qilgan. Shu davrdagi jiddiy yutuqlardan biri -

gradusli o'chlovning kashf qilinishi bo'ldi. Ayrim munozarali masalalarni yechishda meridianning bir gradusini ip bilan o'chash masalasi 725 yilda astronom Nan' Gusho tomonidan hal qilindi. Biz yuqorida ta'kidlab o'dikki, Qadingi Xitoy matematikasiga doir ilmiy ishlar saqlanib qolmagan. Yetib kelganlari esa hali to'iq o'ganilmagan. Xitoy klassikalarining original ishlari esa ko'pchilik uchun tushunarsiz. Yevropa tilariga to'lagichka «To'qqiz kitobli Matematika», va geometriya bo'yicha ayrim ishlargina tarjima qilgan.

«To'qqiz kitobli Matematika». Bu asarda eramizdan oldingi 1-ming yillikkacha bo'lgan matematikalarning ko'p asrlik mehnatlarining samarasasi aks ettirilgan. Bu asar Xitoydag'i matematikaning keyingi rivojlanishiga kuchli turki bergan. «To'qqiz kitobli matematika» asarining muallifi moliya xizmatining atokli amaldorlaridan biri Chjan Tsan hisoblanadi. U eramizdan oldingi 152 yilda vafot etgan. Taxminan 100 yildan keyin, bu asar Gen Chou-chan tomonidan qayta ishlangan. Bizgacha esa bu kitob 263 yilgi taxriri bilan yetib kelgan. Kitobning mazmuni xilma-xil. Analda u yer o'chash ishlari, qurilish ishlari, moliya va xo'jalik hodimlari, savdogarlar va hunarmandlar uchun mo'ljallangan matematik bilimlarni o'z ichiga olgan matematik entsiklopediya hisoblanadi. Har bir kitobda ulkan davlatning iqisodiy va boshqaruv hayoti naftasi ufurib turadi. «To'qqiz kitobli matematika» asariga 246 masala kiritilgan. Har gal yangi masala qo'yilgan, so'ngra uning javobi hamda qisqa yechish usuli «qoidaga ko'ra...» so'zları bilan boshlanadigan izohi bilan berilgan.

kuzgi mehnatining umumi hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

«Proporsional taqsimot» deb ataladigan

6-kitobda turli mazmundagi chiziqli masalar, ikki do'sting uchrashtunicha bosib o'tgan yo'lini aniqlash masalarini, basseynga aloqador masalar keltirilgan.

7 kitob - «Yetishmoxchilik va ortiqchalik» deb nomlangan bo'lib, ikki nomalumli birinchi darajali tenglamalar sistemasining yechish usullariga qaratilgan.



8-kitob «Fan-chen» da ko'p nomalumli chiziqli tenglamalar sistemasini yechish algoritmi keltirilgan.



9-kitob «Gou-gu» ga to'g'ri burchakli uchburchaklarni qo'llashga doir bir qator masalalar berilgan. Ular orasida yetib borish mumkin bo'lmanan obyektlargacha, quduqning tubigacha bo'lgan masofani aniqlash masalarini alohida ta'kidlash joiz.

«To'qiz kitobi Matematika» ning ayrim kitoblari turli davrlarga, fanning turli rivojlanish darajalariga mos kelishi shubhasiz. Kitobarning ba'zi birlari turli darajadagi abstraksiyaga yo'q yilgan. Masalan, 1-kitobning 18-massasida ma'lum bir pulni 33 i kishi o'rtaida taqsimlash hal qilingan.

«Darajalar bo'yicha bo'lish» deb ataladigan 3-kitobda miqdorlarni berilgan nisbatlarda bo'lishga doir masalalar o'z aksini topgan. Masalan, birinchi masalada beshta bug'u tanasini 3 ta amaldorga 5:4:3:2:1 sonlarga proporsional bo'lib berish haqida gap boradi.

4-kitobda (kitob nomi tarjima qilinmagan) to'g'ri to'rburchakning yuzi va bir tomoni bo'yicha ikkinchi tomonini topish, kvadratning tomoni bo'yicha yuzasini aniqlash, hajmi bo'yicha kubning qirrasi ni topish, doira va sharning diametrini hisoblash kabi materiallar berilgan.

5- kitob «Mehmatni baholash» deb nomlangan bo'lib, unda devorlar, kanallar, murakkab formadagi zovurlarning hajmlarini aniqlash, turli qurilish ishlari uchun ishchilarning sonini topish kabi masalar kiritilgan. Masalan, bir kishining qishki, bahorgi, yoz va



Qadimgi Xitoyda matematikaga oid tosh yozuvlar

Kvadrat va kub iildizlarni hisoblash. Bu amallar ikkihadlar kvadratlari va kublari yoyilmalariga ajratish orqali hal qilingan.

Butun aniq kub va kvadratdan ildiz hisoblash algoritmidan ildizning ochilmagan. Biroq Xitoyda chet elliq ko'plab matematiklar, barcha o'nlik raqamlarini topish yotadi. Hisoblash ishlari ildizza qancha raqam bo'lsa, shuncha qadamdan iborat bo'ladi deb xulosa chiqarilgan. Har bir qadamda yordamchi kvadrat yoki kubik tenglama yoki tengsizlikning butun qismini aniqlash yotadi.

π ni hisoblash. Yer o'chash ishlarida ko'pincha π qiymatidan foydalanilgan. Bu ko'proq tahminiy o'chashda qo'llanilgan. Masalan, doira yuzini unga tashqi chizilgan kvadrat yuzining s qismiga teng deb qabul qilingan. Sarkarda olim Van Fan π ning aniq qiymatiga yaqin bo'lgan 45 142 ta sonini aniqlagan. Ammo uning usuli bizgacha yetib kelmagan. «To'qqiz kitobi matematika» kitobiga yozilgan izohlarda Lyu Xuyey π ni hisoblashni Arximed taklif etgan yo'l bilan keltirgan. Bu usul doira yuzini ichki chizilgan muntazam 2n ko'pburchaklarning yuzalari bilan almashtrishga asoslangan. Lyu Xuyeyning bahosi bo'yicha, doiraning yuzi ichki chizilgan ko'pburchak yuzi hamda qoldiq segmentlarga tashqi chizilgan va tomoni muntazam ko'pburchakning tomoniga teng bo'lgan to'g'ri to'rburchaklar yuzalarining yig'indisidan kichik bo'lar ekan.

Qadimgi Xitoy matematikasining tarixiy roli. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, XIV asrgacha bo'lgan matematika fani arifmetika, algebra va geometriyaning ayrim sinf masalarini hisoblash algoritmlari majmuasi sifatida rivojlanib kelgan. Bu algoritmlearning ichida chiziqli tenglamalarni yechishning fan-chi metodi va ixtiyoriy darajali sonli tenglamalarni yechishning Iyan'-Yuan' usuli alohida e'tiborga sazovor. Xitoy matematikasi o'rta asr Sharqidagi hisoblash matematikasining muhim komponentalaridan biri hisoblanadi. Uning zamonaviy matematika rivojiga qo'shgan aniq hissasini aniqlash mushkul. Chunki, Xitoyning qo'shni davlatlar o'zaro aloqalari to'la

1	-	10	+	100	百
2	=	20	=	200	二百
3	=	30	=	300	三百
4	=	40	=	400	四百
5	五	50	五	500	五百
6	六	60	六	600	六百
7	七	70	七	700	七百
8	八	80	八	800	八百
9	九	90	九	900	九百

Qadimgi Xitoydag'i to'qqizlik sanog sistemasi

Masalan, VII asrda Xitoy astronomik byuroda hind mutaxassislarining ishlagani, XIII-XIX asrlarda esa eronlik va O'rta Osiyolik olimlar faoliyat ko'rsatishgan. Boshqa tomondan, Nasreddin at-Tusiyning Maragin observatoriyasida bir qator xitoylik olimlar bilan ishlagan. Nasreddin at-Tusiyning bir qator ishlarida xitoycha yilmomalardan foydalanilgan. Ulugbekning Samarqand observatoriyasida Xitoy kalendari yaxshi ma'lum. Ko'p davlatlarning astronomlari o'rtasidan o'zaro aloqa matematik bilimlarning almashinuvni bilan borgan. Xitoy matematikasining matematika rivojiga qo'shgan hissasi ko'plab kashfiyotlarda o'z oksi ni topgan. Kub va kvadrat ildizlarni hisoblash g'oyasi 100 yillardan so'ng Hind matematikasida uchray boshlagan. Hattoki, Pythagor teoremasining xitoycha usuldag'i isboti ham hind matematiklariga ma'lum bo'lgan. O'rta Osiyoda xitoylarning ixtiyoriy darajali ildiz hisoblashning Gorner usuli bilan bir xil usuli bejiz emas. Xitoy, Koreya va Yaponiya bilan juda yaqin aloqada bo'lgan. 584 yilda Yaponiyaga Xitoy kalendari kirib kelgan. VII asidan boshlab, Yaponiya ma'orif tizimda matematikaning xitoycha


o'qitish usuli joriy qilindi. XVII asrda yapon olimi Seki Kova
xitoyliklarning algebra sohasidagi ishlarini tahlil qilar ekan, chiziqli
tenglamalar sistemasini yechishning amalda determinantlarni
aniqlash bilan ustma-ust tushadigan yangi usulini kashf etgan. Xitoy
matematikaga oid kitoblarini tarjima qilish Koreya
hamma ishlari ham chet ellarda tarqala olmadi. Ammo, umuman
olganda, Xitoy olimlarining matematika sohasidagi ilmiy
izlanishlari o'rta asr Sharq matematiklariga xos bo'lgan hisoblash
matematikasi oqimiga tushgan. Bu masaladagi ma'lumotlarga
kelajakdagi tarixiy-matematik ilmiy izlanishlar yanada oydinlik
kiritadi degan umidda bo'lamiz.

V asrda Xitoyda $x^3 - ax^2 = b$
ko'rinishdagi kub tenglamaning ildizlarini taqribiy hisoblash
algoritmi, VIII asrga kelib umumiyo ko'rinishdagi kub tenglamani
yechish algoritmi ishlab chiqildi. Xitoy matematik va astronomlari
aylana uzunligining diametriga doir anits natijalarini sinfiga
kiritildilar. Masalan. Chjan Xen, Bang Fan $\pi = 3,155\dots$, Lyu Xuyeya
 $\pi=3,1459 \dots$, Su Chunchji esa π ning 55 tagacha qiymatlarni
topganlar.

3.2 Qadimda Hindiston xalqlari matematikasi.

Umumiy ma'lumotlar. Arxeologik kuzishlar shuni ko'rsatdi,
eramizdan oldingi 3-ming yillikning o'rtalarida Hind vodisida
yuqori madaniyatga ega bo'lgan quldarlik davlati mayjud bo'lgan.
Moxinjo-Daro tepaligining yaqinida chiroyli rejalashtirilgan katta
shahar joylashgan. Qolgan shaharlar ham ana shunday reja asosida
qurilgan. Shu davrga mansub matematik yodgorliklar saqlanib
qolmagan. Ammo, qadimgi binolar, sug'orish tizimlari, keramika va
haykaltaroshlik namunalarida matematikaning ayrim masalalarini
ko'rish mumkin. 1 - ming yillikning boshlariida Hindlarning

mashg'uloti sun'iy sug'orish tizimiga asoslangan dehqonchilikdan
iborat bo'lib qolgan.




Hindiston hududida nisbattan katta, ammo iqtisodiy qashshoq
davlatlar paydo bo'idi. Bu davatlarda o'zaro ichki nizolar kuchaydi.
Mayjud hukumat rahbarlari, askarlar, braxmanlar orasida hukumat
uchun kurashlar avj oldi. Hind madaniyatI IV-V asrlarda Gupta
shohligida keng rivojlandi. Shu davrga ko'plab fanlardagi ilk
yutuqlar to'g'ri kelgan. Astronomik-matematik «Siddxanta» asari
ama shu davrga mansub. V-VI asrlarda Pataliputra davlatida
tug'ilgan Ariabaxta, VII asrning ikkinchi yarmida Udjaynda
Braxmagupta katta faoliyat ko'rsatishgan.

Hindistondagi nomerlashning o'nik pozitsion sanoq sistemasi
tugatildi.

Islam davlatlari bilan o'zaro aloqa fanning rivojlanishiga katta
turki bo'ldi. VII-VIII Hindlarning matematika va astronomiya
soyasidagi ishlari arab xalifaliklariga ham yetib borgan. Ana shu
davrda ko'plab Hind olimlari Xitoyda faoliyat ko'rsatishgan.
Hindiston davlatlari ustiga kelgan ko'plab urushlar
qiyinchiliklarga qaramay, matematika, astronomiya fani bilan
birgalikda rivojanib bordi. Janubiy Hind shaxri Maysorada
Magavira (X asr), Sridxara (XI asr), Bxaskara (XII asr)kabi yirik

olimlar ilmiy ishlar olib borishgan. XIV-XV asrlarda ilmiy ishlar Vidjayanagara davlatida katta muvafaqiyat bilan olib borilgan. Bu haqda Rus sayyoxi Affanasiy Nikitin ma'lumotlar qoldigan. 1500 yillar atrofida Hindlarning buyuk matematigi Nilakanta yashab, ijod qilgan.



Qadimgi Hindistonning buyuk matematigi va astronomi

Ariabxatta

(V—Vlaslar)

Eng muhim matematik asarlar. Matematikaga qadimdan chuqur burmat bilan qaralgan. Gautama, ya'ni Buddaga ko'ra, u 8 yoshidan boshlab xatni va arifmetikani o'rganishi boshtagan. Matematikani ko'klarga birinchilardan, IX asrda Magavira bo'lib ko'targan. «Hisoblash hamma yerda, musiqada, dramada, grammatikada, she'riyatda, mantiqda zaurur bo'ladı. Undan quyosh va oy harakatini o'rganishda, orollar va okeanlarning miqdori, perimetri va diametrlarini, xudolar olamini o'rganishda foydalaniładi». Matematikaga oid ilk ma'lumotlar Hindiston diniy-falsafiy «Vedi» («bilim») asarini yozilish davriga borib taqaladi. Bu yerda qimmatli manba bo'lib «Arqon qoidasi» (Sul'va-sutra) asari

hizmat qiladi. Undan keyingi o'rindagi matematik asarlar V-XVI asrlarga to'g'ri keladi. Ko'pincha ular astronomiya bo'yicha kitoblarning ma'lum bir qismini tashkil qilar edi. Matematik asarlardagi bayon juda qisqa bo'lib, ko'pgina xollarda isbotsiz keltirililar edi. Ayrim hollarda matematik asarlar va qoidalari she'riy formada yaratilgan va ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lgan. Shuning uchun o'qitish tizimida asosiy e'tibor yodlashga qaratilgan. Hind matematikasi haqidagi ma'lumotlarni yana quyidagi manbalardan topish mumkin:

a) Mualifi noma'lum bulgan «Quyosh fani» (IV-V asrga mansub) astronomik asar. Unda shaytonga quyosh tomonidan keltirilgan ma'lumotlar berilgan. Bunda muallifning ellin astronomiyasi xamda Solevkidlar davringin astronomiyasi aqidalarini bilan tanishligi ma'lum qiltingan;

b) Astronomiya va matematika bo'yicha 499 yilda Ariabxatta tomonidan yozilgan «Ariabxattam» she'riy traktati. Unda arifmetika, geometriya, trigonometriyaning ayrim masalalarning yechimlari keltirilgan;

c) 628 yilda Braxmagupta tomonidan yaratilgan «Braxmaning mukammallaştilig'an fan» asari. Bu 20 kitobdan iborat she'riy osarning 12-kitobi arifmetikaga, 18-algebraiga, bag'ishlangan;

d) Taxminan 850 yilda Magavira tomonidan yaratilgan «Arifmetikaning qisqacha kursi» asari.

e) XI asrning birinchi yarmida Sridxara tomonidan yaratilgan «Arifmetika kursi» asari;

f) 1150 yillarda Bxaskara tomonidan yaratilgan «Fanlar guldastasi» asari. Uning kattagina qismi proza bilan yozilgan. Uning binchisi —«Lilavati», ikkinchisi ildizlarni hisoblashga, qolganlari o'sha astronomiyaga bag'ishlangan.

“Arqon qoidasi” kitobida matematika osarning kattagina qismini qurbanlik qiladigan joylar mexroblarni qurish qoidalari

tashkil qildi. Unda esa asosan bambuk tayoqlari va arqonlardan foydalanilgan. Ushbu asarning matematik elementlari tarqoq harakterga ega. Ammo ular matematika sohasidagi anclagina bilimlarni talab qilgan. Ma'lumki, mexroblar qat'iy shakl ostida bo'lishi shart. Bu mexroblarning asosini aniq belgilangan figuralar tashkil qilgan. Masalan, tomonlari ma'lum bir munosabatda bo'lgan teng yonli trapetsiya. «Arqon qoidasi» kitobining tuzuvchilari tomonidan

3	4	5
5	12	13
8	15	17
7	24	25

12 35 37

kabi bo'lgan butun sonlardan iborat 5 ta to'g'ri burchakli uchburghaklardan keng foydalanishgan. Ana shunday uchburghaklardan teng yonli trapetsiyalar yasalgan. Kesmani teng ikkiga bo'lish uchun, uning uchlardan radiusi kesma uzunligiga teng bo'lgan aylana yoqlarini o'tkazishgan va aylanalarning kesishishi nuqtalatini birlashtirishgan. Bunday ko'rish usuli tomoni 2a bo'lgan kvadratni yasashda keng foydalanilgan.Pitagor teoremasi yordamida bunday kvadrat ikkilangan va uchlangan. «Arqon qoidasi» kitobida ikki kvadratning farqiga teng bo'lgan kvadratning tomonini topish usuli ham berilgan.

O'nli pozitsion nomerlarning joriy qilinishi.O'nli pozitsion nomerlash Vavilonda, Xitoyda avvalroq boshlangan edi. Ammo bu jarayon tugamagan edi. Bu ish birinchi bo'lib Hindistonda amalga oshirildi. Sanoq qadimdan Hindistonda o'nli sistemada edi. Faqat ayrim yerlardagina 4 asosli sistemadan foydalanishgan. Bir nechta razryadlarda iborat birliklarni additiv printsipda, ayrim hollarda esa subtraktiv formada qo'llashgan. Masalan, 19 ni nava-dasa (to'kkiz-o'n) yoki ekuna vim sati (bir kam yigirma) shaklida va hokazo.

Eka	Bir	Katta o'nli razryadlarni atash
Dvi	Ikki	uchun turli atamalardan
Traya	Uch	foydalanishgan. Masalan, Buddha
CHatvara	To'rt	adabiyotida Budda-Guamatadan
Pancha	Besh	10 000 000 dan keyin xam sanay
SHash	Olti	olasamni? degan savolga Buddha,
Sapta	Yetti	har biri oldingisidan 100 marta
Ashta	Sakkiz	katta bo'lgan 23 ta atamani tilga
Nava	to'qquz	olgan, tallakshana, ya'ni 107223
Dasa	O'n	1053 bilan sanoqni tugatgan.
Satam	Yuz	Buddaning ta'kidlashicha,

bularning hammasi birinci sanoqqa kiradi. Hammasi bo'lib

to'qqizta sanoq mavjud. Oxirgi to'qqizinchı sanoqdagi oxirgi son 107946 10421 dan iborat bo'lgan.

Geometriya.Hindlarning geometriyası algebra va arifmetikaga nisbatan orqada qolgan. Bu ma'lumotlar asosan hisoblash geometriyasiga taaluqli. Ayrim hollarda Evklid geometriyasiga yaqin keladigan jihatlari mavjud. Braxmagupta to'g'ri burchakli uchburghakni yuzimi hisoblashda Geron formulasi deb atalgan formuladan foydalangan va uni doiraga ichki chizilgan to'rburchak uchun isbotsiz qo'llagan.

Ikki asrdan keyin, Magavirada xuddi shunga o'xshash holatga duch kelamiz. U
 2 , 2 , n^2 kabi sonlarni topish usullarini uylab topgan. Braxmaguptada balandlik uchburghak tomonlarida hosil qiladigan kesmalarning uzunliklarini topish usulini ham qayd qilib o'tgan.
Trigonometriyaning boshlanishi.Hindlar trigonometriya sohasida uzoqqa borishmagan bo'lsa ham, ammo muhim yutuqlarga erishgular. Astronomiya Ellada mamlakatlarda juda rivojlanganı

uchun, uning masalalarini yechishning tasviri yositasini va vatarlarni hisoblash vositasini ishlab chiqishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Ptolomey «Anallemma» da quyosh soatlarini yaratishining grafik usullarini ishlab chiqdi. Hind matematiklari asosoan Ellada astronomolaringin ishlariغا suyanganlari holda, ularga turli tuzatmalar kiritishdi va ulardan turli hisoblash qoidalarini va sistemalarini ishlab chiqarishda keng foydalanishgan. Masalan, vatarlarni sinuslar bilan almashtirib olish mumkin. Aslini olganda, bunday almashtirish muxim emasga o'xshaydi. Chunki, ϕ yoyning vaturi yoyning ikkilangan 2ϕ ga teng, ya'ni sinusdan o'zgarmas ko'paytuvchiga farq qiladi. Haqiqatda esa, vatarlardan yarim vatarlarga o'tish juda ahamiyatli edi. Hindistonda trigonometriyaga trigonometrik kattaliklar haqidagi bilimga asos solindi. Sinus, kosinus, sinus-veraus, ya'ni radius va kosinus orasidagi farq «Ariabxattam» dan boshlab, hind matematiklarning asarlarida uchrab turadi. Sinus chizig'i ardxajiva (ardxa-yarimta, jiva-kamonning ipi va vatar) deb nomlangan. Keyinchalik, bu nom jivaga aylangan, jiva arab matematikasiga ham kirib kelgan.

3.3. O'rta Osiyo xalqlarida matematikaning rivojlanishi

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda buyuk olimlar fan xazinasiga beباho javohirlar bilan boyitdilar. Maktablar ochdilar, shular qatoriga Xorazm maktabini keltirish mumkin. X asrning 1-yarmida xorazm ikki qisnga bo'linib, bularning har birida mustaqil hukmdor mayjud bo'lib, Janubiy Xorazimdan Abu Abdullo Muhammad, Shimoliy qismida esa Xorazim amiri Ma'mun ibn Muhammad hukmdor edi. Bu davrda Xorazimning Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo va madaniy aloqalari taraqqiy etgan umuman Xorazm davlatining gullagan davri edi Xorazimning katta shaxarları –Kot va Urganchda ko'plab mashxur olimlar fanning turli soxalarida chuqur va keng ilmiy ishlar olib borar edilar Bu olimlar

fün sohasida entsiplopediy bo'lganlar 995-yillarga kelib bu ikkala davlat birlashdi va yagona Xorazm davlati tashkil qilindi 997-yildan Xorazm taxtini usta diplomat va tadbirkor hukmron Ali ibn Ma'mun boshqardi Ma'mun olim va shoirlarga homiylik qildi Natijada Xorazmda tashkil qilingan maktabni «Donishmandlik uyi» yoki «Ma'mun akademiyasi» deb nomlandi. Bu akademik Marvda so'gra Bog'dodda tashkil qilingan «Donishmandlik uyi» dan 200 yillab faoliyat ko'rsatmagan bo'sada oz vaqt ichida kelajakda buyuk kashfiyotlarni bajaruvchi olimlarni jamldi. Bu olimlar qatoriga Beruniy uning ustozи Abu Nasr ibn Iroq, Ibn Sino uning ustozи Al-Masixiy Abulkayr ibn al-Xammor, adib Abu Nasr as-Saqlavyarni kiritish mumkin. Abu Rayhon Beruniy 973-yil 4-sentabrda Kot shaxrida tugilgan. U boshlang'ich ta'llimi o'zi tug'ilgan shaharda oladi va yoshligidayoq arab, fors yunon, suryoniy tillarini o'rgandi shu bilan birga mantiq, astranomiya matematika, botanika, mineralogiya, fizika va boshqa fantarni qunt bilan o'rgandi. Abu Rayhon Beruniy Grek-Yunon olimlari IX-X aslarning mashxur olimlari Muhammad Al-Xorazmiy, Al-Fargoniy, Sobit ibn Kurra Al-Xaziniy, Abdul Vafo Buzjoniylarning asarlarini o'rgandi va ulargasharxlar yozdi. Abu Rayhon Beruniy turli funlarga oid 150 dan ortiq asarlar qoldirdi, umrini fanga bag'ishladi, o bu haqida quyidagicha yozadi «Menin hamma istaklarim butun vujudim ilm tarqatishga qaratiligidir va men buni o'zim uchun eng ulug' baxt deb bilaman» «Kishini tabiatini pastlashtiradigan yomon ahloqdan haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan xislatlardan o'zimi keyingina ilmiy tadqiqotga kirishish mumkin» deb Beruniyning yirik asarları qatoriga «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» «Xindiston at-taxi (matematikaga oid asar) «Qonuni ma'sudiyy»(astronomiya trigonometriya sferik trigonometriyaga oid)

Samarqand ilmiy markazi va undagi matematik fanlarning rivoji

Jahon fani tarixda o'zlarining juda boy ijodlari bilan nom qoldirgan olimlar orasida o'zbek xalqining ko'plab vakillari borki, bular orasidan Mirzo Ulugbek ilmiy maktabi alohida o'rin egallaydi. VII asrlardan boshlab Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarda, hozirgi O'rta Osiyo, Ozarbayjon respublikalari joylashgan hududlarda fanlar, ayniqsa matematika va astronomiya fanlari katta taraqqiyotga erishganligi va bu taraqqiyotga mashhur olimlar Muhammad Al - Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa olimlar asos solganliklarini ilgari aytib o'tgan edik. Bu taraqqiyotning eng yuqori pog'onasi XIV-XV asrlarda maydonga kelgan **Ulug'bek ilmiy maktabi**va unda olib borilgan matematik ilmiy tekshirishlar hisoblanadi. Ulug'bek ilmiy maktabining astronomiya sohasida erishgan muvaffaqiyatlar, bu ilmiy maktabning astronomiya taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hisassi bo'lib hisoblanadi. Bu maktabda uzoq yillar olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mahsuloti hisoblangan «Yangi astronomik jadvallar» («Ziji jadidi Ko'ragoniy») astronomiya fanining nazariy va amaliy jihatdan boyindi. Astronomiya fanining nazariy va amaliy masalalari matematika bilan uzviy bog'langan. Shu sababli Ulugbek maktabida juda keng va chuqur matematik ilmiy ishlar ham olib borilganki, ularning ba'zilari astronomiyaga doir masalalarni yechish maqsadida bajarilgan bo'lsa, ko'p matematik taqdriotlar, bu sohadagi awvalgi nazarriyani rivojlantirishdan iborat bo'lgan. O'rta Osiyoda XV asrda fan va madaniyat taraqqiy etadi. Madrasalar, kutubxonalar, 50 ta rasadxonalar quriladi. Ularda jud ko'p olimlar turli fan sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib boradilar. O'rta Osiyo olimlari bilan Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarning olimlari orasida ilmiy aloqalar o'matiladi. XV asr birinchi yarmida Samarcand va Hirot O'rta Osiyo xalqlarining ilmiy va madaniyat

markazlari hisoblanar edi. Mana shu davrda Mirzo Ulug'bek rahbarligida tashkil topgan Samarqand ilmiy maktabi O'rta Osiyoda XV-XVI asrlarda tabiiy fanlar taraqqiyotining asosi hisoblanar edi. Bu ilmiy maktabda o'sha davrning eng iste'dodli va donishmand olimlari: Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Maximud, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Abdulali Birjandiy, Alauddin Ali ibn Muhammad Qushchi, Mirim Chalabiy, Baxuddin Omuliy, Najmiddin Alixon va boshqalar matematika va astronomiya sohasida chuqur va keng ilmiy tadqiqotlar olib boradilar. Matematika tarixida Ulug'bek ilmiy maktabi o'zining bir qancha muhim ahamiyatga ega ijodiy ishlari bilan salmoqli o'rin oladi. Haqiqatdan ham, bu olimlarning asarlariда o'qli kasrlarning rivojlantirilishi, bir hol uchun uchinchi darajali tenglamani taqribiy yechish, sonlardan ixtiyororiy darajali ildiz chiqrishning bir qancha usullari, π sonini katta aniqlik bilan topish, bir gradus burchak sinusini hisoblash, yangi astronomik jadval tuzish, algebraga mushbat va manfiy sonlarni kiritish va boshqalar bayon etilgan. Bu masalalar shu maktab vakillari tomonidan hal etilgan. Ulug'bek rahbarligida tashkil etilgan bu ilmiy maktab, Samarqandda o'ttiz yildan ortiq, o'z faoliyatini davom etirdi va tabiiy fanlar taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shti. Bu davrlarda tashkil etilgan madrasalarda ham ko'proq tabiiy fanlar o'qitilar edi. Ulug'bek ilmiy maktabida Muhammad Xavofiy, Qozizoda Rumiy va keyinchalik G'iyosiddin Koshiy rahbarligida o'qitish va ilmiy ishlar olib borilgan. Ular yoshlardan Ali Qushchi, Abduraxmon Jomiy va boshqa olimlarni tuyyorladilarki, bular keyinchalik mashhur olim va shoir bo'lib yetishdilar. Bu olimlar tashhabbusi bilan Mirzo Ulug'bekning shaxsiy rahbarligida mashhur Samarcand rasadxonasi qurildi, bu rasadxona o'sha davrdagi eng mukammalashgan ilmiy tadqiqotlar markaziga aylundi. Ulug'bek ilmiy maktabi sharq astronomiya va matematika hinni sharq va g'arb mamlakatlarga tarqatishda ham muhim rol

o'ynadi. Masalan, Ali Qushchi Hiotga va 1435 yilda Xitoyga boradi, astronomiya va matematika sohasida ma'ruzalar o'qiydi. Bu maktabning ilmiy mahsuloti «Astronomik jadvallar» birinchi marta Yevropada XVII asrda nashr etildi, jumladan, 1665 yilda Oksfordda, 1853 yilda Partida nashr ettirildi. XVIII asrning boshlarida hind olimi Savoy Jay Singx o'z vatani Hindistonda rasadxona qurishda Ulug'bek rasadxonasiga katta e'tibor berib, uch asrdan ortiq davr orasida bu rasadxona katta shon-shuxratga ega bo'lib kelayotganligini ta'kidlaydi. XX asrning boshlarigacha Ulug'bek rasadxonasi haqidagi ma'lumotlar ko'p emas edi. Olimlarning katta ilmiy izlanishlari tufayli Ulug'bek ilmiy maktabining fan soxasidagi olamshumul ishlari xalqimizga yetkazildi va yetkazilmogda.

3.4. Al-Xorazmiy matematika maktabining shakllanishi

Eramizning beshinchisi asr oxirlariga kelib, Rim imperiyasi quladi. Shu munosabat bilan qaddingi yunon fani va madaniyati tushkunlikka uchradi. Bu davorda Yevropaning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida dimming ta'siri niyoyatda kuchaydi. Din ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga qattiq to'sqinlik qildi. Buning oqibatida G'arbiy Yevropada madaniyat taraqqiyoti bir necha asrlar deyarli to'xtab qoldi. Ammo VII-VIII asrlardan boshlab dunyoning boshqa bir tomonidan – Sharqda matematika, astronomiya kabi tabiy fanlar tez sur'at bilan taraqqiy etdi va katta yutuqlarga erishdi. Hozirgi O'rta Osyo xalqlari juda qadimiy fan va madaniyat tarixiga ega. Bu xalqlar juda qadim zamondardon oq Xitoy, Hindiston, Kavkaz va boshqa mamlakatlarning xalqlari bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqa qilib turar edilar. O'rta Osyo xalqlari ihm-fan sohasida bu mamlakatlarning yaratgan yangiliklarini qunt bilan o'rgandilar va o'zlar ham ilm-fan rivojjanishiga katta hissa qo'shdilar.

O'rta Osyo fani va madaniyatning og'ir tarixiy sharoitida xalq ommasining mahalliyva chet el olimlariga qarshi olib borgan kurashi sharoitida taraqqiy etdi.

VII asr oxiri, VIII asr boshlari O'rta Osyonni arablar bosib oldilar. VIII asrning birinchi yarmida arablar juda katta territoriyani - Hindistoning shimoliy - g'arbidan tortib, Afrikaning shimoliy - g'arbiy qirg'oqlaridan to Ispaniyagacha bo'lgan yerlarni bosib oldi va juda katta halfalik tuzdilar. Bu halifalikning poytaxti awal Damashq va 762 yildan Bog'dod bo'ldi. IX asroxirlariga kelib sinfiy kurashlar va mazlum xalqlarning ozodlik harakatlari tufayli O'rta Osyo mahalliy feodal aristokratiyasidan chiqqan sononiylar (874-999) hukmronligi o'matildi. Sononiylar davlatining poytaxti Buxoro edi. O'rta Osyo shaharlariда hunarmandchilik va harbiy ish taraqqiy etdi. Turli mamlakatlarbiyan savdo va madaniy aloqalar rivojlandi. Yoz mavsumlarida uzqoq mamlakatlarga safargachiqsan karvonlarning kechalari bepayon cho'llarda kezishlari va bunda Sharq, G'arb, Shimol va Janub tomonlarni biish va buning uchun esa yulduzlardan, ayniqsa qutb yulduzidan foydalanishzarur bo'lib qoldi. Bu zaruriyat astronomiya va matematika fanlari oldiga tabiy hodisalarinutushuntrish va hisoblash masalalarini yechish vazifalarini qo'ydi. Umuman hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdoning taraqqiyoti turmush talablaritabiyy fanlardan yangi-yangi masalalar yechishni talab etdi. Matematika fani haqiqiy dunyoning miqdoriy munosabatlari va fiziowy shakkilari haqidagifan sifatida insomni turmush ehtiyojlarini qondirish assida paydo bo'lgan va kishilik jamiyatimumumiy taraqqiyoti bilan birgalikda taraqqiy etib, insonning o'sib boradigan moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga hizmat qildi. Vacqni aniqlash, osmon jismalariga qarab yurish, kerak bo'lgan turli tomonlarini aniqlashkabi turmush talablarini qondirish masalalari esa eng qadimiy fan, astronomiyani vujudga keltirdiva uning

taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Matematika, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar sohasida insomning turmush talablariniqondirish, turli hisoblash ishlarini mukammallashtirish va yangi hisoblash metodlarini aniqlash maqsadida turli ilmiy tekshirish ishlari chuqur va keng ravishda olib borildi. Bu sohada O'rta Osiyoda, Bog'dod va boshqa shaharlarda turli millat olimlari birlgilikda ijodiy ish olib bordilar vajuda ko'p ilmiy natijalarga erishdilar. Fanlarni markazlashtirish maqsadida, Bog'dod shahrida «Bayt-ul hikmat» («Donishmandlar uyisi») tashkil etildi. Uning huzurida katta kutubxona va rasadxona qurildi. Bu rasadxonada olimgarturli kuzatishlar va har xil astranomik asboblar yasash bilan shug'ullandilar. Bu donishmandlik uyg'a bir qancha olimlar mamlakatlardan, shu jumladan O'rta Osiyodan bir qancha olimlar kelib ishladilar. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abbas Javhariy va boshqalar bu ilm dargohida ilmiy ishlar bilan shug'ullandilar. Bu davrarda arab tili xalifa xukmronligi ostida bo'lgan turli tillarda so'zlashuvchixalqlarining davlat tiligina bo'lmasdan, balki, fan tili ham bo'lib qoldi. Shu sababli O'rta Osiyolik va turli millat olimlari ham: forslar, o'zbeklar, tojiklar, ozarbayjonlar, turkmanlar va boshqalar o'z asarlарini arab tilida yozganlar va ularning qo'lli yozmalarini ham asosan arab tilida kungacha saqlangan. Bu davrda Yunoniston va Hindistoning mashhur olimlari ham ularni o'rganishga, tahil qilishga va bu asarlarga sharxlar yozishga katta e'tibor berdi. Yunon va Hind olimlari asarlарini arab tiliga tarjima etishi ham olimlar orasida zo'r qiziqish uyg'otdi. Masalan, Evklidning (eramizdan oldingi III asr) «Negizlar», Arximedning (eramizdan oldingi III asr) «Algamest» asari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ko'plariga sharxlar yozildi.

Al-Korazmийning shogirti Sobit ibn Qurra yunon matematiklarining bir qancha asarlарини arab tiliga tarjima qilgan. Arximedning «Yeti burchak haqida lemmalar» asarining faqat arabcha nusxalarигина, Evklidning «Negizlar» nomli 3-, 6-, 7- kitobларининг ham faqat arabcha tarjimasигина bizzacha saqlangan. O'rta Osyo matematikлари matematika sohasida, o'zaricha yaratilgan bilimlarni har tomonlama o'ганниb tahsil qildilar va matematik tekshirishlarning yangi sohalarini yaratdilar, va umuman, matematika fanini yangi ijodiy kashfiyotlar bilan boyitdilar. Ammo matematika tarixida shunday noto'g'ri fikrlar ham borki, bunga asosan IX - XV asrlардаги O'rta Osyo matematikаси yangilikларига eга emas. Bu mamlakatlar hind va yunon matematikлари asarларини о'ргanganlar va oldingi xulosаларни ba'zi hollarda mukammallashtirganlar deb aytiladi.

Matematika tarixi soxasida juda ko'p yillar ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan mashhur Rus olimi A.P.Yushkevich o'zining «IX - XV asrlarda O'rta Osyo xalqlarining matematikasi» nomli maqolasida yuqorida aytilgan fikrlarning noto'g'ri ekanligini qayd qilib, shunday yozadi. «Eng asosiy masala shundaki, O'rta Osyo mamlakatlari (IX-XV asrlar) o'zларидан oldin o'тган olimlarning ishlariга faqat son jihatidan ta'sir etib, davom ettirib qolmasdan, balki, matematik tekshirishlarga yangi g'oyaviy yo'nalish berdilar, sifat jihatidan yangi matematika tuzishga kirishdilar va shuning uchun ham bu fanni birmchi darajali ahamiyatga eга bo'lgan yangi kashfiyotlar bilan boyittilar». O'rta Osyo matematikлари bir qancha fundamental kashfiyotlarga egadir. Ularning ba'zлari quyidagilardan iborat:

Arifmetika va kombinatorika sohasida :

1. Oltmishlik pozitsion sistemani mukammallashtirish.
2. O'nli kasrlarning ijod etilishi.
3. Sonlardan ildiz chiqarish usullarini ishlab chiqish.

4. Matematika tarixida birinchi marta Nyuton binomi formulasini ixtiyoriy natural ko'rsatkich uchun aniq qo'llanishi.

5. Musbat haqiqiy son tushunchasini kengaytirish.

Algebra soxasida :

1. Algebrani mahsus fan sifatida yaratish.

2. Kubik tenglamadaning birinchi holini sonli yechishda maxsus integratsion metodning kasht etilishi.

3. Kubik tenglamalarni yechishda geometrik nazariya tuzish.
Trigonometriya va geometriya sohasida :
1.Tekis va sferik trigonometriya sistemasini tuzish.
2.Aniq va to'liq trigonometrik jadvallar tuzish.
3.Parallel to'g'ri chiziqlar nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar, noyevkiid geometriyani kashf etishga zamin tayyorlash.
4. Yasashga dor geometrik masalalarни yechishda turli metodlarni ishlab chiqish va boshqalar.

O'rta asrlarda yashagan O'rta Osiyolik ofimlar orasida Xorazmlik Muhammad al-Xorazmiy (783-850) va Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Xo'jandlik, Xo'jandiy (1000 yillarda vafot etgan), Buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037), Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan joyi – Farobdan Abu Nasr Farobiy (873-950), Kaspiy dengizining janubiy - g'arbiy tomonida joylashgan Tabaristondan Al Kuniy (X asr), Samarqandlik Mirzo Ulug'bek (1394-1449) va uning rahbarligidagi ilmiy maktab vakillari va boshqalar bor.

2. Nomerlash.Qadingi Misrikarning nomerlash sistemasi keyingi uch ming yilliorda o'zgarmagan. Faqat sonlarning ko'rinishlari o'zgargan xolos. Bu uzgarishlar Misida yozuvning evolyutsiyasi bilan bog'lik bo'lgan. Qadingi Misrikarning yozuvini asosan odamlar, hayvonlar, qushlar va hasharotlar, kundalik uy-ro'zg'or buyumlarining rasmlari shakkida bo'lgan. Qachonlardir; ana

shu rasmlar Misrikilar uchun shu rasmga mos ma'no va tushunchalarni anglagan. Keyinchalik, bu rasmlar iyeroglif xatlarida maxsus bo'g'inlar va ayrim hollarda hatto harflar ma'nosini anglata boshlagan. Sonlar xam so'zlar kabi maxsus rasmlar orqali ifodalangan. Bu rasmlarning ayrımlari konkret buyumlarning tasvirlariga o'xshab ketadi. Bir sonini I shaklida yozilgan. U asosan kesishlar soniga bog'lik bo'lishi mumkin. Iyeroglifik △ yozushi unni bildiradi. Ammo bu belgining kelib chiqish tarixi ham bizga yetib kelmagan. Yuzliklar shaklida yozilgan. 1000 soni yuqoriga ko'tarilgan bosh barmoq tasviri orqali ifodalangan. Hattoki, yuz ming uchun qurbaqa, million uchun qo'llini ko'tarib turgan odam tasviri kabi belgilardan foydalanilgan. Butun sonlarni yozishda qat'iy o'nlik razryadli printsipdan foydalanilgan. Undan kichik bo'lgan sonlar oddiy qilib, birlarning takrorlanishi tarzida, masalan, 5-IIII kurinishida yozilgan. Shunday qilib, katta razryadli sonlarni yozishda o'nliklar va yuzliklar takrorlangan. Masalan, 233 soni iyeroglifik yozuvlarda tarzida yozilgan. Iyeroglifik yozuvlarning yo'naliishi ko'pincha yuqorida pastiga qarab bo'lgan. Hatto kolonnadan kolonnaga o'tishda o'ngdan chapga prinsipi qo'llanilgan. O'ngdan chapga qarab o'qilgan. Biz uchun eng qiziq bo'lgan sonlarni o'qish tartibiga to'g'ri kelgan. Yozuvlarni kamayishi tartibi satrni o'qish tartibiga fikr etishga qarab o'qilgan. Papiruslarda tarqalishi natijasida, fakt devorlarga rasm solish uchun qo'llanilgan iyeroglifik yozuvlar asta-sekinlik bilan o'zarishlarga duchor qilindi. Belgilar rasm ko'rinishini yo'qota bordi. Faqat ayrim xollardagina tashqi o'xhashlik saqlanib qolgan. Shu bilan birga sonlarning ko'rinishi ham o'zardi. Yangi belgilashlar kiritildi eng ko'p takrorlanadigan belgilarni va raqamlar birlashtirildi. Natijada sonlarning o'nlik sistemasi yuzaga keldi. Bu sistema pozitsion princip mavjud bo'lmagan xolos.

3. Butun sonlar ustida amallar. Agar Misriklarning sonli belgilari o'zinikiga o'xshab ketsada, hisob amallari o'ziga xos xususiyatlari bilan harakterlanadi. Butun sonlarni qo'shish va ayrish amallari haqida unchalik murakkab bo'Imagan. Masalan, qo'shishda bir xil razryadlardagi belgillarni sanash va qo'shish, zarurat bo'lsa, ya'ni, bu sanashda yangi razryad yuzaga kelgan bo'lsa, uni rasmdagi maxsus belgi bilan almashtirish samali bajarilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, qadingi Misriklarda sanoq asbobi (hozirgi schyotlarga o'xshash) mavjud bo'lgan. Faqat ular danaklarni sterjenda o'tkazilgan ko'rinishda bo'lmay, turli razryadlarni bildiruvchi toshlardan iborat bo'lgan. Bu toshlar danaklar kabi sterjen bo'ylab surilmay, balki alohida hisob taxtalariga olib qo'yilgan.

Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy miliowy 780 yili, Islom uyg'onish davridan yuz yilgina keyin, Mavarounnahrda tavallud topgan. Xorazmiy yoshlik chog'laridanoq sezilarli qobiliyatlari bilan yaqqol ajralib turar va tengdoshlari orasida eng iste'dodli bola edi.



1 Z 3
4 5 6
7 8 9
0

Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy

Shu sababli ham u ko'p tadqiqotlari ustida yolg'iz ishlar edi. IX asrda Xorazmiy o'sha davridagi xalifa Al-Mansur tomonidan Bayut Hikmatda ishlash uchun Bag'dodga chaqiriladi. Xorazmiy umrida ilk bor o'z ilmiy darajasidagi olimlar davrasiga tushib qoldi va u olimlar Muhammad Xorazmiyning aqifiy salohiyati yanada

yuksalishida alohida ahamiyat kasb etdi. Xorazmiy ularning safida bo'igan payt Baytul Hikmatdag'i ulamolar kengashi yunon, fors va hindlardan qo'lga kirita olgan har qanday asarlarni tarjima qilish bilan band edilar. Zotan, Al-Xorazmiy tug'ilgunga qadar qadimgi dunyo qo'lyozmalarining asosiy qismi tarjima qilib bo'lingan yoki tarjimasi yakunlanish jarayonida edi. Bu qo'lyozmalardan olingen ilmlar o'sha davr muslimon olimlariga kuchli ta'sir o'tkazgan, ammo bu ta'sir Xorazmiyda o'zgacha biindi.

shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Differensial va integral hisobni rivojlanishining keyingi bosqichi Gottfrid Vilgelm Leybnits nomi bilan bog'liq. G.V.Leybnits 1646 yili Leypsigda professor oиласида tug'ildi. Leypsig universitetini bitiradi. 1673 yıldan London qirollik jamiyatining, 1700 yıldan Parij Fanlar akademiyasining a'zosi. Berlin'dagi va Peterburgdagi akademiyalarning tashkilotchisi. Uning ilmiy dunyoqarashi: tabiiy fanlar, fizika, falsafa, huquq, til va adabiyot, matematika. 1673 yilgacha asosan kombinatorika masalalari bilan shug'ullanadi. 1673-76 yillarda Parijda Gyuygens bilan uch rashgan va Dekart, Vallis, Paskal ishlari bilan tanishgan Leybnits geometrik usulda differensial va integral hisobini kashf etdi va 1684 yili 6 bepta jurnalda e'lon qiladi. Shundan so'ng aka-uka Bernullilar bilan birga analizing ko'plab teoremlarini kashf etadi. 1693 yilda determinantlar nazariyasiga asos soladi va bir qancha qoidalarni ochadi. Uning ishini aka-uka Bernullilar davom ettiradilar. Cheksiz kichik miqdorlar ustida algebrlik muhokama usulida foydalangan yana bir olim London qirollik jamiyatining asoschisi, Oksford universitetining professori Djon Vallis (1616-1703). 1655 yili "Cheksizlar arifmetikasi" asarini e'lon qiladi. Bu asarida u Kavalyeri erishgan natijasini to'liqmas matematik induksiya yordamida ixtiyoriy butun son uchun chiqaradi. Cheksiz kichik miqdorlar ustida algebrlik muxokama usulida foydalangan yana bir olim London qirollik jamiyatining asoschisi, Oksford universitetining professori Djon Vallis (1616-1703). 1655 yili "Cheksizlar arifmetikasi" asarini e'lon qiladi. Bu asarida u Kavalyeri erishgan natijasini to'liqmas matematik induksiya yordamida ixtiyoriy butun son uchun chiqaradi. Umuman Vallis algeberdan analiz tomonga qadam qo'ygan birlinchi matematikdir. U cheksiz qatorlar va cheksiz ko'paytmalar bilan bema'lol ish yurita olgan: maxnum ifodalar, manfiy va kasr ko'rsatkichlar va boshqalar. 1885 yil K.Veyershtass [a;b] kesmada uzlusiz bo'lgan har qanday

$f(x)$ funksiya shu kesmada tekis yaqinlashuvchi butun algebraik ko'phadlar yig'indisi ko'rinishida analitik tasvirlash mumkinligini isbotlaydi. Ko'rinish turibdiki funksiya nazariyasi rivojlangan sari u faktlar bilan boyib bordi, yangi sohalar vujudga keldi. Shu bilan birga uning roli ham oshib boradi. Analizza kirish matematikaning eng yuqori bosqichi funksiyalar nazariyasi darajasiga olib chiqdi.

Leonard Eyler (nemis, Leonhard Euler; 15.04.1707-18.09.1783 y.y. Sankt-Peterburg, Rossiya). Buyuk nemis (Shvetsariyalik) matematik olim. U matematika, fixika, astronomiya, mexanika fanlariga fundamental tadqiqotlari bilan xissa qo'shgan. 20 dan ortiq fundamental kitoblar, 850 dan ortiq ilmiy asarlar muallifi. Lagranj qatorida XVII buyuk matematiklardan biri bo'lib, uning ilmiy yo'naliishlari matematik analiz, differensial geometriya, sonlar nazariyasi, fazoviy maxanika, matematik fizika, optika sohalarni o'z ichiga oladi. U Peterburg, Berlin, Turin, Bazeyel, Lissabon, Parij va boshqa Yevropa davlatlarining fanlar Akademiyalari a'zosi bo'lgan.



Karl Teodor Veyershtass



Leonard Eyler

(1707 - 1783 y.)

"Funksiya – bu analitik ifodadir" – 1738 yil I.Bernulli, L.Eyler "Analiza kirish" (2 томлик, 1738 yil) asarida "O'zgaruvchi miqdor funksiyasi bu shu o'zgaruvchi miqdor va sondan qandaydir usul

bilan tuzilgan analitik ifodadir" deb yozgan. Argumentning haqiqiy va mavhum qiymatalarini e'tiborga olgan. Funksiyani tuzish uchun u arifmetik amallar, daraja, ildiz, integrallash amallari yordamida hosil qilgan. So'ngra funksiyalarni xossalarga qarab klassifikatsiyalangan: bir qiymatli, ko'p qiymatli, juft-toq, va x.k.. Bularni qatoriga elementar, transendent funksiyalar ham qo'shilgan. Uzlusiz kasrlarning xossalaridan funksiyani elementar kasrlar yig'indisi ko'rinishda ham tasvirlash mumkin ekanligi asoslangan. Xulosa qilib XVIII ast matematikasida funksiya tushunchasi Eyler tasavvuridagidek bo'lib, har qanday analitik ifodani qator ko'rinishida tasvirlash mumkin deb qaralgan.

Ehtimollar nazariyasi keng tarmoqli fan bo'lib, u ilmiy tadqiqotlarda muhim g'oyaviy qurol vazifasini bajaradi. Ehtimollar nazariyasingning tadbirlari nafaqat nazariy fizika va statistik fizika, kvant mexanikasi, astronomiya, radioelektronika va biologiyadagina emas, bundan tashqari uning natijalari va metodlari ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasida, ishonchlilik nazariyasida, matematik lingvistikada, ishlab chiqarishni rejalashtirish va optimal bosqarishda, mahsulotlar sifatini kontrol qilishda va boshqa maqsadlarda keng qo'llaniladi. Hozirgi paytda ehtimollar nazariyasi va matematik statistikani moliyaviy matematika va sug'urta masalalarida keng qo'llanishi bu fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi va uni o'rganishning qanchalik muhimligini ko'rsatdi. Extimollik nazariyasingning asoschilari Y.Bernulli va buyuk rus matematigi Pafnutiy LvovichChebishev va Andrey Andreyevich Markovlar. Chebishev P.L. (1821-1894) 1841 yili Moskva universitetini tamomlaydi. 1846 yili magistrlik dissertatsiyasini: "Ehtimollar nazariyasingning elementar tahlili tajribasi", 1849 yili Peterburg universitetida doktorlik dissertatsiyasi: "Taqqoslamalar nazariyasi" yoqlaydi. 1853 yildan akademiyada ishlaydi. 80 dan ortiq ilmiy ishi bor. Peterburg matematika mabkabini shakllanishida

xizmati katta. Ular asosan sonlar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, funksiyalar yaqinlashishi va polinomlar, integrallash sohalarida ish olib bordi.



Y.Bernulli

(1654 – 1705 й.) (1821 – 1894 й.)

(1856 – 1922 й.)



P.L.Chebyshev


A.A. Markov



A.A. Markov

(1856 – 1922 й.)

Dastlabki holda xatoliklar nazariyasi yaratildi. Uning tadbig'i sifatida matematik statistika vujudga keldi va normal taqsimot qonuning muximligi asoslandi. Bu yo'nalishda Gauss, Puasson, Koshi kabi buyuk maatematik olimlar xizmat qildilar. Keyinchalik barcha rivojlangan mamlakatlarda statistik departamentlar tashkil etildi. Buyuk matematik Karl Pearson ilmiy ishlariida matematik statistika, gipotezalarni tekshirish va parametrlar bo'yicha baholash metodlari ishlab chiqildi.




Karl Pearson (1857 – 1936 й.у.)

Matematik statistika fani stoxastik tajribalar natijalarini o'rganadi. Bunday tajribalarga kundalik hayotdan, jumladan tabiat va jamiyatdan, fan va texnika sohalaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Shu sababli bu fanning xalq xo'jaligiga tadbiqi ham kengdir. Fanning asosiy maqsadi tasodifiy hodisalarlarning ro'y berish darajasi - ehtimoli, ular orasidagi turli murakkab bog'lanishlar, ularning sonli ifodasi bo'lgan tassodifiy miqdorlar va ularning taqsimot qonunlari, tasodifiy miqdorlar yig'indisi bilan bog'liq bo'lgan turli da'volarni o'rgatishdan iboradir. Fanning tadbiqi statistika qismi esa stoxastik tajribalarda olingan sonli ma'lumotlar - tanlanmani qayta ishlash va undan tegishli statistik xulosalar chiqarish usullarini o'rgatadi.

4.4. Rossiya matematikasi maktabi tarixidan

Asta-sekinlik bilan rivojlanayotgan matematika fani XIII asrda tatar-mo'g'il bosqinchiligi (Botuxon-1240) natijasida to'xtab qoldi va Rossiya bu istelodan 1480 yil butunlay ozod bo'ldi. Qayta rivojlanish XVIII asrda Pyotr I davridagina boshlandi. Xulosa qilib shuni ayish mumkinki o'rta asr Yevropa matematikasi asosan algebra soxasidagi ishlar bo'lib, uni apparatini va simvolikasini takomillashtirishga qaratilgan edi. Bu vaziyatlar algebrani bundan keyingi rivoji uchun turki bo'ldi.

XV asirdari russ matematigi Magnitskiyning «Arifmetika» asarining (titul varag'i va 1 – beti) nashr qilindi. Bu davrda Rossiyada elementar matematika va mexanika yo'naliishlari rivojlandi.



XIX asrda Rossiyada matematikaning Jaxon darajasidagi rivojlanishi kuzatildi va yirik matematik olimlar shakllandi. Birinchilardan bshlib Mixail Vasilievich Ostrogradskiy matematik analiz, differential tenglamalar, iattiuiik nazariyasi elektromagnetizm sohasida katta ilmiy ishlar amalgaga oshirildi. U bir nechta Yevropa mamlakatlarning fanlar akademiyasining a'zosi bo'lgan. Matematika sohasida muhim amaliy tadqiqotlar qilga rus matematigi Viktor Yakovlevich Bun'yakovskiyni ham keltirish mumkin. Uning asosiy ilmiy ishi "Ehtimollikning matematik nazariyasining asoslari" («Osnovaniya matematicheskoy teorii veroyatnostey»)



M.V. Ostrogradskiy
(1801 – 1862)



V.Y. Bunyakovsky
(1804 – 1889)


Bu davorda Rossiyada matematikaning asosan sonlar naziyyasi, matematik fizika va ehtimollar naziyyasi yo'nalishlarni rivojlangan.

XIX asning birinchi yarmida Rossiya matematika makkabi yana bir dunyo darajasidagi matematik olimni berdi. Bu Nikolay Ivanovich Lobachevskiy.

N.I.Lobachevskiy Evklid geometriyasi dogmatikasiga qarshi chiqgan birinchi olim hisoblanadi u

Lobacheskiy geometriyasini taklif qildi va ning bu soxadagi ilmiy ishlari o'limidan keyin amaliy tadbiqlarini topdi. XIX asning ikkinchi yarmida Rossiya matematikaning yirik namoyondalaridan biri Pafnutiy LvovichChebishev hisoblanadi.

Uning davrida Moskva matematiklar jamiyatni ish boshladi va ko'plab matematik olimlar bu jamiyatga a'zo bo'ldilar.




N. I. Lobachevskiy P.L.Chebishev S.V.Kovalevskaya

(1792 – 1856 y.) (1821 – 1894 y.) (1850 – 1891 y.)

Rossiya matematika maktabining yana bir namoyondasi birinchi rus matematika professori Sofya Vasilievna Kovalevskaya hisoblanadi. XIX asning oxiri va XX asning boshlarida S.Peterburgda tarixiy saxnaga bir qator matematik olimlar chiqdi. Ular orasidada D.A.Grave, A.N.Krilov,A.M.Lyapunov, V.I.Smirnov, V.A.Steklov, N.N.Luzin, S.A. Chapliginlar bor. Matematikaning ehtimollik naziyyasi va matematik statistika yo'nalishlarida katta va muhim ahamiyatga ega bo'igan ilmiy natijalar olindi (A.A.Markov, V.I.Lyapunov), turg'unlik naziyyasi bo'yicha (A.M.Lyapunov), sonlar naziyyasi bo'yicha (I.I.Ivanov, Y.V.Uspenskii) ham katta ilmiy natijalar ham olindi. Keyinchalik


matematikaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham muxim ilmiy natijalar e'lon qilindi.



A.A.Markov A.M.Lyapunov V.A.Steklov

(1856 – 1922 y.) (1857 – 1918 y.) (1863 – 1926 y.)

Jumladan, matematik fizika tenglamalari bo'yicha V.A. Steklov (keyinchalik u fanlar akademiyasining vitse – Prezidenti bo'lib ishlagan), Moskva matematika makkabida D.F.Yegorov, N.N.Luzin va S.A.Chaplin ka professorla matematikaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.



D.F.Yegorov N.N.Luzin S.A.Chaplin

(1869 – 1931 y.) (1883 – 1950 y.) (1869 – 1942 y.)

Shunday qilib, Rossiya matematika makkabi dunyo niqyosida matematika fani va uning amaliy tadbiqlarini amalga oshirishga salmoqli xissa qo'shib kelmoqda. Albatta, yuqorida keltirilgan

olimlarning matematika bo'yicha yuzlab ilmiy asarları nafaqat

Rossiyada, balki Jahon miqyosidagi ilmiy nashrlarda e'lon qilindi.

Nazorat savollari

- 1.Differansial va integral hisobiga olib keluvchi tushunchalarni izohlab bering.
 - 2.O.Koshi va K.Veyershtrass hayoti va ijodi.
 - 3.Nyutonning differential hisobi haqida nimalar bilasiz?
 - 4.Leybnitsning differential hisobi qanday?
 - 5.Nyuton va Leybnits hayoti va ijodi.
 - 6.Ularning izdoshlari haqida nimalar bilasiz?
 - 7.Rossiya matematika tarixida asosan qaysi yo'nalishlar rivojlandi ?
 - 8.Rossiyalik mashhur matematik olimlar ilmiy faoliyatini izohlang.
- Musulmon Sharqi olimlari geometriyani ham rivojlantirgan (Sobit ibn Qurra, Abulvafo, Umar Xayyom), trigonometriyaga fan sifatida asos solganlar (Ibn al-Xaysam, Beruniy, Tusiy), xususan, Ahmad al-Farg'oniy tomonidan Ptolemyning stereografik proyeksiya haqidagi teoremasining isbotlanishi Bag'dod akademiyasida geometriya chuqur o'r ganilganini ko'rsatdi. Arab tlida ijod qig'an matematiklarning uchinchisi va to'rtinchi darajali tenglamalarni geometrik usulda yechish yo'llari keyinchalik analitik geometriya yaratilishiga turki bo'lgan.Matematika rivojlanishida Xorazm Ma'mun akademiyasi (Ibn Iroq, Beruniy) ham muhim rol o'yangan. Sharq M. si rivojining cho'qqisi esa Samarqand ilmiy maktabi davriga to'g'ri keladi. Ullug'bek va uning rahbarligidagi olimlar (Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Husayn Bitjaniy va b.) ulkan rasadxona qurish, yulduzlar koordinatalari va sayyoralar harakatini katta aniqlikdakuzatish ishlari bilan birga ulkan rasadxona qurish, yulduzlar koordinatalari va sayyoralar harakatini katta aniqlikda kuzatish ishlari bilan birga

V – BOB. XX ASR MATEMATIKASI TARIXI

5.1. Matematika tarixida yo'nalishlarning shakllanishi.

IX-asrdan fan tarixi «Muslimmon renessansi» deb nomlangan yangi yuksalish davriga kiradi. «Bayt ul-hikmat»da Yunoniston, Hindiston, Xorazm va Xitoyda jamg'arilgan bilimlar sintez qilinib, matematika izchil rivojlantirila boshlandi. Xorazmiy tarzoq bilimlarni tartibga keltirib, algebraga asos soladi. Uning o'qli sanoq sistemasi bayon qilingan asari tufayli bu qulay hisoblash vositasi dunyoga yoyildi. Asarları o'qimishli bo'lishi uchun Xorazmiy anik va lo'nda bayon uslubini qo'llagan. Shu tufayli uning asarları keng tarqagan. Xorazmiy uslubi yevropalik tarjimonlar tomonidan mullalif nomi bilan algoritm deb atalgan.

Xorazmiy uslubi yevropalik tarjimonlar tomonidan Ptolemyning stereografik proyeksiya haqidagi teoremasining isbotlanishi Bag'dod akademiyasida geometriya chuqur o'r ganilganini ko'rsatdi. Arab tlida ijod qig'an matematiklarning uchinchisi va to'rtinchi darajali tenglamalarni geometrik usulda yechish yo'llari keyinchalik analitik geometriya yaratilishiga turki bo'lgan.Matematika rivojlanishida Xorazm Ma'mun akademiyasi (Ibn Iroq, Beruniy) ham muhim rol o'yangan. Sharq M. si rivojining cho'qqisi esa Samarqand ilmiy maktabi davriga to'g'ri keladi. Ullug'bek va uning rahbarligidagi olimlar (Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Husayn Bitjaniy va b.) ulkan rasadxona qurish, yulduzlar koordinatalari va sayyoralar harakatini katta aniqlikdakuzatish ishlari bilan birga ulkan rasadxona qurish, yulduzlar koordinatalari va sayyoralar harakatini katta aniqlikda kuzatish ishlari bilan birga

kuzatuv natijalari bo'yicha yoritgichlarning sferik koordinatalarini hisoblash usullarini, interpolatsiya formulalari, keyinchalik Gorner sxemasi deb atalgan usulni hamda ketma-ket yaqinlashishlar usulini ishlab chiqadilar. Ulug'bekning «Ziji jaddi Ko'ragoniy» asaridan o'ta aniqlikdagi trigonometrik funksiyalar jadvallari ham o'rinn olgan. Ulkan hajindagi hisoblash ishlarni bajarish uchun Ulug'bek rasadxonasasi qoshida maxsus guruh — o'ziga xos hisoblash markazi tuzilgan. Bunda, $x = \sin G$ ni aniqlash uchun avval geometrik usul bilan sin 3° hisoblangan.

XVI asrdan Sharkda fan inqiroz sari yuz tutdi. Islom dunyosi olimlarining asarlari X-XII ashlardan Yevropaga tarqallib, tarjuma qilina boshlangan va Matematikaning XVI asrdan jadal rivojlanish yo'liga kirishi uchun zamin hozirlagan. Jumladan, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy asarlari Ispaniya va Italiya orqali, Ulug'bekning «Ziji jaddi Ko'ragoniy» asari Istanbul orqali Yevropaga kirib borgan. Bu asarlar ta'sirida Italyada Matematikaga qiziqish kuchaydi (L. Fibonacci, L. Pacholi, N. Tartalya). Arifmetik amallar qatoridan daraja, ildiz va logarifm o'rinn egallaydi. Uchinchi va turtingchi darajali tenglamalarning ildizlari haqiqiy bo'sada, manfiy sondan kvadrat ildiz vositasidagina yechish mumkinligi kompleks sonlarga ehtiyoj tug'diradi.

XVII asrdan Matematika tarixining J. Vallis, I. Kepler, R. Dekart, B. Kavalyeri, P. Ferma, F. Viyet va B. Paskal nomlari bilan bog'liq yangi davri boshlanadi. Matematik belgilashlar keng joriy etiladi. Bu, o'z navbatida, Matematika rivojiga ijobjiy ta'sir etadi, analitik geometriya, proyektiv geometriya, ektimollar nazariyasi va sonlar nazariyasiga asos soladi. Birin-kechin ochila boshlangan universitetlarda Matematika asosiy predmetga aylanadi. Bu davorda fransuz olimi M. Mersenn orqali dunyo olimlari o'rtaida olib borilgan o'zaro yozishmalar tufayli dastlabki xalqaro matematiklar jamiyatlar vujudga keldi, ular o'rtaida ilmiy musobaqa mubiti

kuchaydi, natijada yangi obyektlar (chiziqlar va tenglamalar) tadqiqotga tortildi, ekstremum topish, urinma yasash, yuzlarni hisoblash, kombinatorikaga oid yangi masalalar qo'yish kerak bo'idi, funksiyalar, ya'ni o'zgarishi bir-biri bilan bog'liq kattaliklar bilan ishlashta to'g'iri kela boshladi. Bunday masalalarni yechishda elementar usullar yetishmagani uchun cheksiz marta takrorlanadigan amallarga murojat eta boshladilar. B. Kavalyeri aylanma jismlar hajmini hisoblashda «bo'lmaslar usulini qo'lladi, I. Barrou egri chiziqli trapetsiya yuzi bilan urinmaning o'zgarishi orasidagi munosabati payqadi. XVII asr oxirida bu yo'nalishdagi izlanishlar differensial va integral hisob yaratilishiga olib keladi. G.T. Leybnits yangi hisobga «cheksiz kichik» kattaliklar tushunchasini asos qilib oldi — bunday kattaliklar o'z holicha aniq ma'noga ega bo'lmasada, ularning nisbatlari va cheksiz yig'indilari tayin qiymatlarga teng chiqar edi. Leybnits bu usul bilan geometriyaning avvaldan yechilmay kelgan ko'plab muammolarini hal etish mumkinligini ko'rsatdi (1782—86 yy.).

1. Nyuton differensial va integral hisob g'oyasiga boshqa tomonidan — mexanika masalalari orqali yondashdi. Bu yerda ham ahvol geometriyaga o'xshash edi: tekis harakatlarni o'rgangan G. Galiley uchun elementar geometriya kifoya qilgan bo'lsa, murakkabroq harakatlar murakkabroq chiziqlarni tekshirishni talab etar edi. 1. Nyuton 1669 y. da bu mavzudagi tadqiqotlari jamlangan «Flyuksiyalar metodiy» nomli asarini I. Barrou va J. Kollinza taqdim etган, lekin u 1736 y. da nashr etilgan.
- XVIII asarda matematika taraqqiyoti, asosan, differensial va integral hisobni rivojantirish hamda tatbiq etish bilan bog'liq bo'ldi. Bernullilar oilasi, Eytler, Dider, Lagranj, Lejeandr va Laplas kabi ko'plab atoqli olimlar yangi sohanai atroficha rivojlanТИRIB, matematik analiz nomi bilan kuchli tadqiqot


quroliga aylantirdilar.

Uning asosida differensial tenglamalar, variatsion hisob va differensial geometriya kabi mustaqil sohalar vujudga keldi. Bu davrda Partij, Berlin, Peterburg akademiyalari va Kembrij unti yitrik fan markazlariga aylangani, dastlabki ilmiy jurnallar nashr etila boshlagani matematika taraqqiyotini jadallahstirdi. Proyektiv geometriya, ehtimollar nazariyası, chiziqli algebra va sonlar nazariyasi rivoj topdi, kompleks sonlar keng qo'llanib, kompleks o'zgaruvchili funksiyalar o'rganila boshladi.

XIX asrda ham matematikaning rivoji asosan 2 yo'nalishda: ham bo'yiga, ham ildizi tomon o'sishda davom etdi. Bu davrda matematikaning hozirgi universitetlar quyi kurslarining dasturini tashkil etadigan sohalar: matematik analiz, analitik geometriya va chiziqli algebra, differensial tenglamalar, haqiqiy hamda kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyalari asosan shakllanib bo'idi va ular asosida mutlaqo yangi g'oyalalar kun tartibiga chiqa boshladi. K.F. Gauss darajali ko'phad kompleks sonlar maydonida n ta chiziqli ko'paytuvchiga ajralishini (algebraaning assosiy teoremasini) bekamu ko'st isbotladi. Bir necha asr davomida 5 darajali tenglamani yechish masalasi matematiklarni bezovta qilib kelgan edi. P. Ruffini va N. Abel bu tenglama ildizini uning koefitsiyentari orqali to'rt arifmetik amal hamda ildiz chiarish orqali ifodalash mumkin emasligini asoslardilar. E. Galua esa Lagranj, Lejandr g'oyalalarini davom ettirib, algebraik tenglama ana shu ma'noda yechilish yechilmasligi masalasi idzilarning simmetrik funksiyalari tenglamaning koefitsiyentlari orqali ifodalananishiga bog'liq bo'lishini ko'rsatdi. Bu yerda Galua birinchi marta simmetriyaning o'chovi vazifasini bajaradigan gruppa tushunchasini qo'lladi. Bundan avvalroq shunga yaqin g'oya asosida Gauss sirkul va chizg'ich yordamida muntazam ko'pburchak yasash muammosini hal qilgan edi. Galua

g'oyalaridan hosil bo'lgan maydonlar nazariyasi bunday yasashlar masalasini umumiy holda hal qilish imkonini berdi.

Gauss va Galua g'oyalari ta'sirida avval mustaqil rivojlangan sohalarning bir-biriga aralashuvni boshlandi: kompleks o'zgaruvchili funksiyalar differensial tenglamalar va sonlar nazariyasiga, algebra — sonlar nazariyası va kristallografiyaga tatbiq etildi.



Karl Gauss

(1777 – 1855 y.)

Evarist Galua

(1811 – 1832 y.)

Nils Abel

(1802 – 1829 y.)

Ayniqsa, Kleyn har bir almashtirishlar guruppasiga alohida geometriya mos kelishi asoslangan, fan tarixiga «Erlangen dasturi» nomi bilan kirgan ma'rzasidan so'ng matematik krmuniyatlarining tagida yotuvchi tub tamoyillar ochila boshladi.

Ayni paytda Matematikaning «kildizlari» ham o'sdi. Evklid zamonidan ma'lum bo'lib kelgan tasdiqlarni qat'iy isbotlash prinsipi ortga chekindi. Differensial va integral hisobni asoslamay qo'llash, ayniqsa, cheksiz amallar bilan erkin muomala qilish paradokslar, anglashilmovchiliklar keltirib chiqardi.

XIX asr boshida O.L. Koshining differensial va integral hisob limit hamda uzluksizlik tushunchasi asosida bayon etilganligi bu vaziyatga ancha oydinlik kiritdi. Lekin uzluksiz funksiyaning integrali mavjudligini isbotlashda bu tushunchalar kamlik qiddi.

Kemtikni to'ldirish yo'lidagi urinishlar K. Veyyershtrassni «haqiqiy son nima?» — degan savolga olib keldi. Ayni paytda Evklidning mashhur beshinchisi postulatini isbotlash uchun ming yillik samasiz urinishlar noevklid geometriya ixtiro qilinishi bilan ming yillik samasiz esa geometriya asoslarini chuqur taftish qilishi talab eta boshladi.


19-a. oxiriga kelib matematika asoslarini mustahkamlash bo'yicha katta qadamlar qo'yildi: haqiqiy sonlar nazariyasi tugallandi (Veyyershtrass, Dedekind), matematik mantiq shakllandi (Peano, Frege), funksiyalar nazariyasi yaratildi (Riman, Lebeg, Fubini, Stilties), geometriyaning aksiomalar sistemasi takomilga yetkazildi (Hilbert), to'plam tushunchasining ahamiyati anglandi, bu tushuncha asosida geometriya kabi butun matematikani ham qat'iy aksiomalar asosiga qurishga ishonch paydo bo'ldi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlari Matematika tarixida misli ko'rilmagan yuksalish yillari bo'ldi. 1893 y. da Chikagoda Amerika qit'asi ochilishining 400 yilligi munosabati bilan keng xalqaro miqyosda Matematika kongressi o'tkazildi. Kongressda dunyo matematiklari muntazam uchrashib, eng yangi natijalar haqida ma'ruzalar qilib turishlari zarurati e'tirof etildi.

Puankarening g'oyalari yetakchi mavzuni taskil etgan bo'lsa, Parij kongressida esa D. Gilbert o'zining mashhur muammosini bayon etdi. Puankare g'oyalari va Gilbert konsepsiyasi Matematikaning XX asr davomidagi taraqqiyotiga juda unumdon ta'sir ko'rsatdi. Ammo Matematika asoslariga chuqurroq kirishligani sayin muammolar ham o'tkirlashib bordi — XX asrning boshlari matematika tarixidagi eng chuqur inqirozga to'qash keldi — matematikaning asoslarida chuqur ziddiyatlar ochila boshladi (Burali — Forti, Rassel, Rishar, Grelling paradoxlari). Ularni yengib o'tish yo'lidagi urinishlar natijasida to'plamlar nazariyasining aksiomatik nazariyasi yaratildi (Sermelo, Frenkel, Bernays, J. Fon Neyman) va «Matematika binosi yaxlit mukammal loyiha asosiga qurilgani» haqidagi Gilbert tasavvuri qayta tiklandi.

XX asmining 1-choragida Matematikada qat'iy isbot g'oyasi batamom shakllandi. Shu asosda N. Burbaki butun Matematikaning asosiy qismini yagona usul — natjalarni eng umumlashgan tarzda bayon qilish maqsadida «Matematika elementari» nomli ko'p jildli monografiyani chop etishga kirishdi. Burbaki targ'ib qilgan uslub matematikaning ayrim (abstrakt) sohalari rivojiga katta turki berdi. Bir kator davlatlarda (jumladan, sobiq Ittifokda) Matematikani o'qitish «burbakizm» uslubida isloq qilma boshladi, lekin muvaffaqiyatsiz chiqgan bu tajriba matematika ta'limida hozirgacha yengib o'tilmagan muammolarini keltirib chiqardi.

XX asr o'rtalaridan matematika ikki yo'nalishda rivojlana bordi: bir tomondan, ilmiy-teknik taraqqiyot ehtiyoji bilan differentsiyal tenglamalar, matematik fizika, chekli ayirmalar matematikasm, ehtimollar nazariyasi, hisoblash matematikasi klassik sohalar kengayib, o'ta tarmoqlashib ketdi, ikkinchi tomonidan, matematikaning ichki rivojlanish qonunlaridan kelib chiqqan masalalar birinchi o'rinda turuvchi, tabiq doirasi juda tor, o'ta



Chikago

Parij

Syurix

Dastlabki rasmiy xalqaro Matematika kongresslari 1897 y. da Syurixda va 1900 yilda Parijda o'tkazildi. Syurix kongressida A.

abstrakt sohalar (umumiyl algebra, differentzial va algebraik geometriya, topologiya, funksional analiz kabi) sohalar xilma-xil yo'nalishlarni vujudga keltirdi. Rivojlangan mamlakatlarda shakllangan yirik ilmiy maktablar tor sohalar bo'yicha yo'nalishlarga bo'lina boshladi. 20-a. gacha Matematika alovida olimlarning mashq'ulot obyekti bo'lib kelgan bo'isa, so'nggi yuz yilda jamoaviy faoliyat tabiatini kasb eta boshladi. Ilmiy jur. lar, risolalar, ilmiy to'plamlar, maqolalar soni geometrik progressiya bo'yicha o'sa boshladi. Bu esa, o'z navbatida, Matematika taraqqiyotida yana bir muammo — turli yo'nalishlar o'rjasida aloqalarning susayishi, bayon uslubining og'irlashib ketishi, isbotlarning to'g'riligini tekshirib ko'rishni hamda natijalarning to'g'riligi yo noto'g'riligiga ishonch hosil qilishni murakkablashthirdi, mavzularning g'oyat maydalashib ketishiga olib keldi. yaxlit «matematika» kasbi «algebraist», «geometr», «topolog», «ehtimolchi» va «funksionalchi» kabi o'nlab fanlarini shaxrida kosisib olibdi.


Garchi bu tabiatan tashkiliy inqiroz hali to'liq yengib o'tilmagan bo'lsada, XX asr nihoyasida matematikada yangi ko'tarilish yuz berdi, xususan, Fermaning katta teoremasi isbotlandi (E. Uayls), matematikaning ning bir-biridan yiroq sohalari o'rjasida chuqur aloqalar ochila boshladi. Matematika sohasida ta'sis etilgan xalqaro Filds medaliga sazovor bo'lgan ishlarning ko'pchiligi matematikaning bir-biridan mustaqil uch-to'rt sohasiga oid tushuncha va usullar qo'llanib olingan natijalar ekani «Matematika — yaxlit fan» degan konsepsiya qaytadan jon bag'ishladi. AQSHlik matematik D. Knut tomonidan universal Tex matn muharriri ishlab chiqilishi va elektron aloqa vujudga kelishi 21-a. da Matematika rivojanishi uchun yangi ufkarni ochib bermoqda.

Bugun P. Dirakning quyidagi ramziy ta'rif yana ham o'riniroq: «Matematika bu — istalgan tabiatli abstrakt tu-shunchalar bilan ishlash uchun maxsus moslashgan quroldir. Bu borada uning quadratiga cheku chegara yo'q».

5.2. XX asrda O'zbekistonda matematikaning rivojlanishi.

O'zbekistonda matematika fani rivojlanishi O'rta Osiyo davlat universitetining ochilishi bilan bevosita bogliq. O'zbekistonda matematika fanlarini shakllanishi va rivojlanishi yirik olim, O'zbekiston fanlar akademiyasini birinchisi akademigi Toshmuxammad Qori-Niyoziy nomi bilan bog'liq. Qori-Niyoziy 1897 yilda Xojikent shaxrida kosib oиласида tug'ildi. U birinchilaran bo'lib O'rta Osiyo Universitetining fizika – matematika fakultetiga kirib, 1930 yilda uni muvoffaqiyatli tamomlaydi. 1931 yilda unga professor unvoni berildi va 1931 – 1933 yillar shu universitet rektori bo'lib faoliyat ko'rsatdi. 1939 yilda fizika-matematika fanlari doktori. U matematikaning o'zbek terminalogiyasi asoschisi xisoblanadi, matematik adabiyotlarning o'zbek tilidagi mualif. Ilmiy faoliyati Mirzo Ulug'bekning me'rosini ilmiy tadqiq qilishga bag'ishlangan. Matematika va unga yondosh fanlardan 300 dan ilmiy maqolalar va bir nechta monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llannalar mualif. 1952 yilda Davlat mukofoti sovrindori, mexnat qaxramoni. Uning tanlangan asarlar to'plami 8 jildni tashkil etidi.

1943 yildan 1947 yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasi prezidenti. Ilmiy tashkilotchiligi davomida o'nlab chet el davlatlarida ilmiy kongresslarida ma'riza qilgan. U 1970 yil 17 martida vafot etdi.



Toshmuxammad Qori – Niyoziy

(1897 – 1970 y.y.)

Milliyy mutaxassislarning yetishib chiqishida bu maskanni tashkil etishga O'zbekistonga kelgan rus matematiklari o'z xissalarini qo'shdilar. Bular orasida *Vsevolod Ivanovich Romanovskiy* (1879—1954) ning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. U ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bilan shug'ullanib, bu soha buyicha Markov zanjirlarini tekshirishda analitik va algebraik usullarini qo'lladi. Shu bilan birga Toshkenda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'yicha maktab yaratilishiga asos soldi. O'z shogirdlari bilan matematik statistikaning tatbiqlariga doir ishlarni e'lton qildi.




V.I.Romanovskiy

(1879—1954 y.y.)



Иллюстрация САРТ. Чиста на архиве Н.М.Миронова. М.П.Ильиной.
А.Л.Бородкин, С.Д.Симонов, Г.А.Рыбков, С.Н.Романовский. 1952.



Sarimsoqov T.A.
(1915 – 1995 y.y.)


Sirojiddinov S.X.
(1921 – 1989 y.y.)

Keyingi yillarda ToshDU professori, matematika instituti professori lavozimlarda faoliyat ko'rsatib keldi. Tavalludining 75 yilligi munosabati bilan Mehnat qaxramoni unvoniga sazovor bo'idi, 1943 yildan akademik, 1948 yilda Davlat mukofotiga, 1967 yilda (M. Y. Antonovskiy va V. G. Boltynskiylar bilan birgalikda) O'zbekiston Respublikasi Beruniy davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Asosiy ishlari ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'yicha. Markov zanjirlari va uning tatlqlarini, matematik analiz masalalarini hal qilishda qo'lladi.

S. X. Sirojiddinov 1942 yilda Urta Osiyo davlat universitetini tugatgan, 1953 yilda fizika-matematika fanlari doktori, 1956 yilda professor unvonlariga erishgan. 1954—56 yillarda MDU da ishladi, 1956 yilda ToshDUda, 1957—67 yillarda O'Z FA matematika instituti direktori, 1966—70 yillarda va 1983 yildan ToshDU rektori lavozimlarida ishladi. 1970—83 yillarda O'zbekistan Respublikasi FA vitse-prezidenti bo'lib faoliyat ko'rsatdi. Funksiyalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan. Bir jinsli va bir jinsli bo'lgan Markov zanjirlari nazariyasiga katta xissa qo'shgan. Shuningdek, extimollar nazariyasingin amaliy tatlqlari bilan shug'ullanigan. 1956 yildan O'Z. FA muxbir a'zosi, 1966 yildan esa haqiqiy a'zosi bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 1970 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 1973 yilda Beruniy nomli Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

O'zbekistonda xususiy hosilali differensial tenglamalar, taqribili va sonli usullarni rivojlantirishda Maximud Salohiddinovich Salohiddinov (23.11.1933 - 05.05.2018 y.) ning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p yillar davomida (1967—1985 yillar) matematika instituti direktori, O'zbekistoi Respublikasi FA prezidenti lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi. 1974 yilda «Aralash-murakkab turdag'i tenglamalar» monografiyasi bosilbo chiqdi va bir

nechta o'quv qo'llannmalarini muallif, ayniqsa, o'zbek tilida yozilgan «Kompleks o'zgaruvchili funktsiyalar nazariyasi» o'quv qo'llannmasi (xamkorlikda) matematiklarni tarbiyalab yetishтирishda katta rol o'ynamoqda. 1974 yilda Beruniy davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda matematikaning zamonaviy yo'nalishlari




Saloxitdinov M.S.

(1933 – 2018 y.y.)

bo'yicha olti nafar akademiklar, o'nlab fan doktorlari, professorlar va yuzlab fan nomzodlari ilmiy faoliyat olib bormoqdalar. XX asning ikkinchi yarmida O'zbekistonda matematikanin keyingi rivojlani O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston Qaxramoni Shavkat Abdullayevich Ayupov akademik Azimboy Sa'dullayevlar nomlari bilan bog'liq,



akademik Ayupov Sh.A. akademik Sa'dullayev A.



Ayupov Sh.A. 1952 yil 14 sentabreda Toshkent shahrida

ziyoliyalar oilasida tug‘iigan, 1974 yilda Toshkent davlat universitetini matematika fakultetini funksional analiz ixtisosligi bo‘yicha tugallagan. 1983 yildan fizika – matematika fanlari doktori, professor. O‘zbekiston fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi. Ko‘plab davlat va xalqaro mukofotlar soxibi. 2021 yilda unga O‘zbekiston Qaxramoni unvoni berilgan. Akademik Ayupov Shavkat Abdullayevichning asosiy ilmiy ishlari funksional analiz va uning zamonaviy tarmoqlaridan biri hisoblangan operatorlar algebraлari nazariyasiga oid. A. Yordan algebraлari sohasida ham nazariy, ham tattiqiy yo‘nalishda yirik ilmiy tekshirishlarni amalga oshirdi. Gilbert fazosidagi o‘z-o‘ziga qo’shma operatorlar Yordan algebrasi tuzilishi va qurilishi bo‘yicha muhim ilmiy natijalar olgan.

Sa’dullayev Azimboy (1947.9.1, Xorazm viloyati) – matematik olim, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi (1995), fizika-matematika fanlari doktori (1982), professor (1985). Moskva universitetini tugatgan (1969), ToshDU da kafedra mudiri (1983-92), dekan (1985-92). Urganch universitetida rektor (1992 yildan), Xorazm Ma’mun akademiyasi raisi (1997-2002). Ilmiy ishlari ko‘p argumentli funksiyalar nazariyasiga oid bo‘lib 1980-1990 yillarda shakllangan. Kompleks potensiallar nazariyasini yaratgan mualliflardan biri. Bu nazariyani amalyotda qo‘lib, bir necha yirik ilmiy muammolarni yechgan. Fundamental ishlarning bir qanchasi chet ellarda nashr qilingan, darslik va monografiyalarda chop etilgan. 1- va 2- chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oly Majlisi deputati. “Mehnat shuhрати” ordeni bilan mukofatlangan (2003).

XX asrning ikkinchi yarmida va XXI asr boshlarida O‘zbekistonda matematika soxasida ko‘plab olimlar yetishib chiqdi, o‘nlab fan doktorlari va yuzlab fan nomzodlari yetishib chiqdilar. Hozirda bir qator akademiklar, o‘nlab fan doktorlari va yuzlab fan nomzadlari matematikaning turli soxalari bo‘yicha ilmiy faoliyat olib bormoqdalar.

Xalqaro Bernulli jamiyatining I kongressi Toshkentda o‘tkazilgani (1986 y.) bu sohada O‘zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlarning xalqaro miyosda tan olinishi natijasidir. O‘zbekistonda matematika fani va matematik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha bir qator Prezident Farmonlari va Hukumat Qarorlari e’ton qilindi. 1999 y. da O‘zbekiston matematiklari jamiyatı tashkil etildi (birinchi raisi, marxum T. J. Jo‘rayev), 1991 y. dan «O‘zbek matematika journali — Uzbekskiy matematicheskiy journal», 2001 y. dan o‘quvchilar uchun «Matematika, fizika va informatika» jurnalni nashri etila boshladi. Bugungi kunda respublikamizda 90 dan ortiq tui doktorlari, 300 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Nazorat savollari:

1. Matematika tarixida yo'nalishlarning shakllanishiga qanday

omillar ta'siri bo'lgan?

2. Matematika tarixida yo'nalishlarning shakllanishini izohlang.

3. Shakllangan yo'nalishlar kesimida faoliyat ko'rsatgan qaysi olimlar va ularning qaysi ilmy asarlarini bilasiz?

4. XX asrda O'zbekistonda matematika fanining shakllanishi.

5. XX asrda O'zbekistonda matematika fanining shakllanishi va rivojlanishiga katta xissa qo'gan olimlar haqida nimalarni bilasiz?

6. O'zbekistonda matematika fani va ta'ilimini rivojlantirishga qaratilgan meyoriy-huquqiy hujjalarni tavsiflang.

“Matematika tarixi” fanidan seminar mashg'ulotlarining

“namunaviy mavzulari

1. Matematika tarixi fan sifatida, uning maqsad va vazifalari.

2. Amaliyotning matematika rivojlanishidagi roli.

3. Matematika tarixinin asosiy davrlari.

4. Dastlabki matematik tushunchalarini paydo bo'lishi.

5. Son tushunchasini paydo bo'lishi.

6. Nomerlashning turli sistemalari. O'nli pozitsion sistema.

7. Al-Xorazmiyning “Arifmetika” asarining roli.

8. Arifmetika tushunchasi. Sanash vositalari.

9. Raqamlarning ifodalananishi.

10. Geometriyaning kelib chiqishi.

11. Geometriya tushunchasining tavsifi.

12. Eramizdan awvalgi VI asrdan to V asrgacha Yunon-Rim matematikasi.

13. Matematikani deduktiv fan sifatida shakllanishi.

14. Butun va ratsional sonlar arifmetikkasi.

15. Qadimgiy Yunonlarda uch asosiy masalaning shakllanishi.

16. Demokrit. Limitlar nazariyasining antik formasi.

17. Yunon matematikasini deduktiv fan sifatida shakllanishi.

18. Aristotelning “Boshlang'ichlar” kitobi.

19. O'rta asr va uyg'onish davrida Yevropa matematikasi.

20. O'rta asr va uyg'onish davrida Yevropa matematikasi. Rus matematikasi.

21. Algebraning yetakchilik roli.

22. Son tushunchasini kengayishi. Kompleks sonlar.

23. Hisoblashlar va ularning metodlari.

24. Differensial va integral hisob. Koshi va Veyershtress hayoti va ijodi

25. Differensial va integral hisobining dastlabki kurtaklari:
B.Kavelyeri, P.Ferma, B.Paskal, Dj. Vallis, I.Borrou.

26. Nyuton va Leybnitsning differensial va integral hisobi.

27. Nyuton hayoti va ijodi, izdoshlari.

28. Leybnits hayoti va ijodi, izdoshlari.

29. O.Koshi va K.Veyershtass hayoti va ijodi.

30. Ehtimollar nazariyasini yaratish tarixi.Nyuton va Leybnits

hayoti va ijodi.

31.L.Eyler hayoti va ijodi. Funksiya tushunchasining

rivojanishi.

32.Matematikada yangi bilimlarning paydo bo‘ishi va

rivojanishi.

33. Noyevklid geometriyani kashf qilinishi.

34. XIX-XX asrlarda matematika va yangi bo‘limlarning rivojanishi. Bu davrning yetakchi matematik olimlari.

35. O‘zbekistoda matematikaning rivojanishi tarixi.

V.I.Romanovskiy.

36. T.A.Sarimsoqov., SX. Sirojiddinov, M.S.Salohiddinov larning hayoti va matematikadagi ilmiy ijodi.

Просвещение, 1974
10. Ahadova M., O‘rta Osiyolik mashhur olimlar. T. O‘qituvchi, 1986 у.

11. Bant-дер Варден Б.Л., История математики ,М.

Просвещение , 1959й.

12. Normonov A., “Matematika tarixi”, O‘zMU,, 2006 у.

13. Nazarov O. va boshqalar, “Matematika tarixi”, O‘qituvchi,

2001.

14. R.Ibragimov. “Matematik tarixidan ma’ruzalar matnlari” ,N., 2007

15. R.Ibragimov., Matematik tarixidan o‘rganish savollari 2008

16. Y.R.Rahmonova.,Matematika darslari jarayonida sharqning

buyuk allomalari merosidan foydalanish ,T,2006.

17. Y.Saitov. Matematika va matematiklar xaqida. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992. 134 b.

Foydalananigan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Abduraxmanov, Algebra tarixidan, Т., TDU ,1996 у.

2. A.Abduraxmanov, Maktabda geometriya tarixi. Т.,

O‘qituvchi, 1993 у

3. История математики. З-том. Пол. Ред. А.Юшкевича, М., Наука, 1970, 1972 й.

4. Normatov A.A.Matematika tarixi, (ma’ruzalar). TDPU, 2001

5. К.Рибников, История математики. М., изд. МГУ, 1974 й.

6. AxmedovS.A., O‘taosiyodamatematikao qitishtarixidan, Т. О‘qituvchi, 1977 у

7. Рибников К.А., История математики, 2-нашри,

Просвещения, 1974

8. Строк Л., Краткие очерки истории математики З-

нашри., М. “Просвещение”, 1978.

9. Юшкевич А.П., Истории математики в средние века, М.

Просв. 1961.

10. Ahadova M.,O‘rta Osiyolik mashhur olimlar. T. O‘qituvchi,

1986 у.

11. Bant-дер Варден Б.Л., История математики ,М.

Просвещение , 1959й.

12. Normonov A., “Matematika tarixi”, O‘zMU,, 2006 у.

13. Nazarov O. va boshqalar, “Matematika tarixi”, O‘qituvchi,

2001.

14. R.Ibragimov. “Matematik tarixidan ma’ruzalar matnlari” ,N.,

2007

15. R.Ibragimov., Matematik tarixidan o‘rganish savollari 2008

16. Y.R.Rahmonova.,Matematika darslari jarayonida sharqning

buyuk allomalari merosidan foydalanish ,T,2006.

17. Y.Saitov. Matematika va matematiklar xaqida. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992. 134 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

18. Иэн Стоарт."Величайшие математические задачи". 415 с. 2015 г.

19. Эрик Белл."Математическая мысль. От Пифагора до наших дней" Премиум. 397 с. 2014 г.

Internet manzillar:

- 1.ZiyoNet.uz
- 2.jspi.uz
- 3.yuz.uz
- 4.edu.uz
- 5.nuu.uz
- 6.Sandu.uz
- 7.Math.ru
- 8.qwe.wiki

Rudjabov B.SH., Usmonov B.Z., Ergashev I.A.

**МАТЕМАТИКА ТАРИХИ
(О‘қув qо‘llanna)**

Muharrir: X. Taxirov
Tehnik muharrir: S. Melikuziva
Musahih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. "Times new roman" garniturası, kegли 17.
Offset bosma usulida bosildi. Sharli bosma tabog'i 7. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1500123

City of book MCHJda chop etildi.